

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI
TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“ELEKTRONIKA VA ASBOBSOZLIK” VA “ELEKTRON
APPARATURALARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI”**

yo'nalishlari uchun

**“ELEKTRON APPARATLARNI ISHLAB CHIQARISH
TEXNOLOGIYASI”**

moduli bo'yicha

O'QUV-USSLUBIY MAJMUASI

Mazkur o'quv-uclubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi 538 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dastur asosida tayyorlandi

Tuzuvchi:

TDTU "Elektron uskunalarini ishlab chiqarish texnologiyasi" kafedrasi
dots.f-m.f.n. A.Xaydarov

Taqrizchi

TDTU "Elektron uskunalarini ishlab chiqarish texnologiyasi" kafedrasi
dots.Gaibnazarov

O'quv-uclubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29 dekabrdagi 4 sonli yig'ilishida ko'rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	10
III. NAZARIY MATERIALLAR	12
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	85
V. GLOSSARIY.....	117
VI. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR	120

I. IShChI DASTUR

Kirish

Dastur O’zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabr “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-sonli Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish hamda oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu ishchi o’quv dastur bo’yicha elektron qurilmalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va bosqichlari, mikrokontrollerlarning asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari, virtual modellashtirish dasturi “Multisim” modellashtirish dasturi, asturda turli qiyinlikdagi sxemalar yig’ish va modellashtirish, “Proteus ISIS Professional” modellashtirish dasturi, “Proteus ARES Professional” dasturida pechat platalarini tayyorlash, “MikroC PRO for PIC” modellashtirish dasturi, “Flowcode” dasturi bilan tanishish va asosiy buyruqlarni o’rganish bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Elektron apparaturalarni ishlab chiqarish texnologiyasi” modulining maqsadi:

Elektron texnikaning dolzarb muammolari, konstruktsiyalash jarayonining mohiyati, zamonaviy loyihalashning asosiy vazifalari, o’lchov nazariyasining axborot va algoritmik ta’mnoti, o’lchov texnikasining asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari va elektron sxemalarni hisoblash bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish.

“Elektron apparaturalarni ishlab chiqarish texnologiyasi” modulining vazifalari:

- ✓ elektron texnikaning dolzarb muammolarini;
- ✓ konstruktsiyalash jarayonining mohiyati, zamonaviy loyihalashni;
- ✓ o’lchov nazariyasining axborot va algoritmik ta’mnotin;
- ✓ o’lchov texnikasining asosiy parametrlari va ularning xususiyatlarini;
- ✓ elektron sxemalarni hisoblash uchun modellash dasturlarini;
- ✓ elektron sxemalarni hisoblashda modellashning turli rejimlari bo’yicha bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirish.

Modul bo’yicha tinglovchilarining bilimi, ko’nikmasi, malakasi va

kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.

“Elektron apparaturalarni ishlab chiqarish texnologiyasi” modulini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- ✓ elektron texnikaning dolzarb muammolarini;
- ✓ konstruktsiyalash jarayonining mohiyati, zamonaviy loyihalashning asosiy vazifalarini;
- ✓ o’lchov nazariyasining axborot va algoritmik ta’minotini;
- ✓ qurilma va tizimlarni loyihalashga tizimli yondashish;
- ✓ o’lchov texnikasining asosiy ko’rsatkichlari va o’lchash usullarini tahlil qilish;
- ✓ ko’pfaktorli o’lchov tajribalarni o’tkazishni rejorashtirish;
- ✓ turli maqsadlarda qo’llaniladigan elektron sxemalar tarkibini tanlash va tahlil qilish;
- ✓ o’lchov texnikasining asosiy parametrlari va ularning xususiyatlarini;
- ✓ elektron sxemalarni hisoblash uchun modellash dasturlarini;
- ✓ elektron sxemalarni hisoblashda modellashning turli rejimlarini bilishi lozim.

Tinglovchi:

- ✓ namunaviy zahira elementlarini konstruktsiyalash;
- ✓ qurilma va tizimlarni loyihalash va optimallashtirish;
- ✓ o’lchov kanallarining tarkibi va ularning statik va dinamik xususiyatlarini aniqlash;
- ✓ axborot-o’lchov tizimlarini loyihalash;
- ✓ elektronika elementlarini tanlash;
- ✓ elektron asboblar ishlash rejimlarini aniqlash;
- ✓ zamonaviy tizimlarni tashkillashtirish ***ko’nikmalariga ega bo’lishi lozim.***

Tinglovchi:

- ✓ konstruktsiyalash usullarini qo’llash;
- ✓ turli xildagi qurilmalarni konstruktsiyasi va tizimlariga bo’lgan talablarni aniqlash;
- ✓ teleo’lchov tizimlarini loyihalash;
- ✓ o’lchov kanallarini tahlil va sintez qilish;
- ✓ diskret elektron texnika asboblaridan foydalanish;
- ✓ mikroelektron asboblaridan foydalanish;
- ✓ sanoatda foydalanish uchun elektron qurilmalarni tanlash ***malakalariga*** ega bo’lishi zarur.

Tinglovchi:

- ✓ qurilma va tizimlarni loyihalashga tizimli yondashish;
- ✓ o'lchov texnikasining asosiy ko'rsatkichlari va o'lchash usullarini tahlil qilish;
- ✓ ko'pfaktorli o'lchov tajribalarni o'tkazishni rejulashtirish;
- ✓ turli maqsadlarda qo'llaniladigan elektron sxemalar tarkibini tanlash va tahlil qilish;
- ✓ "Elektron uskunalarni ishlab chiqarish texnologiyasi" yo'nalishi fanlarini o'qitishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ✓ "Elektron uskunalarni ishlab chiqarish texnologiyasi" yo'nalishida elektronika asboblari va qurilmalarini yaratish *kompetentsiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"Elektron apparaturalarni ishlab chiqarish texnologiyasi" moduli o'quv rejadagi quyidagi fanlar bilan bog'liq: "Kvant-mexanik xisoblash usullari" va "Elektron apparatlarining ishonchliligin hisoblash usullari".

Modulning oliv ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar elektron komponentlar, qurilmalarni o'rganish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		jam'i	Nazaiy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1.	Elektron qurilmalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. Mikrokontrollerlarning asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari	8	2	2	4
2.	Virtual modellashtirish dasturi "Multisim" modellashtirish dasturi. Dasturda turli qiyinlikdagi sxemalar yig'ish va modellashtirish.	4	2	2	
3.	"Proteus ISIS Professional" modellashtirish dasturi. "Proteus ARES Professional" dasturida pechat platalarini tayyorlash.	6	2	4	
4.	"MikroC PRO for PIC" modellashtirish dasturi. Dasturda turli qiyinlikdagi dasturlarni yaratish.	4	2	2	
5.	"Flowcode" dasturi bilan tanishish. Asosiy buyruqlarni o'rganish.	2		2	

Jami:	24	8	12	4
--------------	----	---	----	---

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Elektron qurilmalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. Mikrokontrollerlarning asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha qisqacha tarixiy ma'lumot. Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi fanining maqsadi va vazifalari. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish. Avtomatik boshqarish nazariyasining asosiy tushunchalari. Mikroprotsessorni paydo bo'lish sabablari, rivojlanish tarixi. Mikroprotsessorning tuzilishi. Mikrokontrollerlar haqida umumiylar. Xucuciyati va qo'llanilishi.

2-mavzu: Virtual modeldashtirish dasturi "Nachalo Elektronika".

Nachalo Elektronika modeldashtirish dasturi.

Multisim haqida umumiylar. Multisim dacturiy komplekci va uning dacturiy komplekcining qicqacha tavcifi.

Modellash dacturining tarkibi. Multisim dacturining interfeyci. Ultiboard dacturiy komplekci va uning dacturiy komplekcining qicqacha tavcifi. Ultiboard dacturining interfeyci.

3-mavzu: "Proteus ISIS Professional" modeldashtirish dasturi. "Proteus ARES Professional" dasturida pechat platalarini tayyorlash.

"Proteus ISIS Professional" dasturiy kompleksi. "Proteus ISIS Professional" dasturiy kompleksining qisqacha tavsifi. Modellash dasturining tarkibi. "Proteus ISIS Professional" dasturining interfeysi.

4-mavzu: "MikroC PRO for PIC" modeldashtirish dasturi. Dasturda turli qiyinlikdagi dasturlarni yaratish.

"MikroC PRO for PIC" haqida umumiylar. "MikroC PRO for PIC" loyihalash muhiti. "MikroC PRO for PIC" da yangi loyixa yaratish. PIC16F876A kontrolleri xaqida ma'lumot.

AMALIY MASHG'ULOT MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot: Elektron qurilmalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. Mikrokontrollerlarning asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari.

Elektron qurilmalarni ishlab chiqish fanlarini o'qitishda kompyuter texnologiyalarining ahamiyati va ulardan foydalanish. "Nachalo Elektronika" dasturi. "Nachalo Elektronika" dasturlarda elektron qurilmalarni modeldashtirish va hisoblash.

2-amaliy mashg'ulot: Virtual modeldashtirish dasturi "Multisim" modeldashtirish dasturi. Dasturda turli qiyinlikdagi sxemalar yig'ish va modeldashtirish.

“Multisim” modellashtirish dasturini o’rgani. Simmetrik Multivibratorning tuzilish sxemasini o’rganish, uning ishlashini har xil rejimlarda tadqiq etish.

3- amaliy mashg’ulot:“Proteus ISIS Professional”dasturi va bu dasturlarning Elektron qurilmalarni ishlab chiqish masalalarini hal qilishdagi o’rni.

“Proteus ISIS Professional”dasturi to’g’risida dastlabki ma’lumotlar, dasturning boshqa dasturlardan farqi va bu dastur bilan ishlashni o’rganish, dasturning kamchiliklari va afzalliklari, bu dasturda mikrokontrollerlar qurilmalarini modellashtirish.

4-amaliy mashg’ulot:“MikroC PRO for PIC” dasturi va bu dasturlarning Elektron qurilmalarni ishlab chiqish masalalarini hal qilishdagi o’rni.

“MikroC PRO for PIC”dasturi to’g’risida dastlabki ma’lumotlar, dasturning boshqa dasturlardan farqi va bu dastur bilan ishlashni o’rganish, dasturning kamchiliklari va afzalliklari, bu dasturda mikrokontrollerlar qurilmalari uchun dasturlar tuzish va ularni modellashtirish.

5-amaliy mashg’ulot: “Flowcode” dasturi bilan tanishish. Asosiy buyruqlarni o’rganish.

“Flowcode” dasturi to’g’risida dastlabki ma’lumotlar, bu dastur bilan tanishish va uni o’rganish. dasturlarda elektron qurilmalarni modellashtirish va hisoblash.

KO’ChMA MASHG’ULOT MAZMUNI

Mavzu:Elektron qurilmalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. Mikrokontrollerlarning asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari.

Ko’chma mashg’ulotni tinglovchilarni TDTU “Elektron apparaturalarni ishlab chiqarish texnologiyasi” kafedrasining laboratoriya xonasida o’tkazish rejalashtirilgan.

TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Ta’limni tashkil etish shakllari aniq o’quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o’qituvchini tinglovchilar bilan o’zaro harakatini tartiblashtirishni, yo’lga qo’yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o’qitish jarayonida quyidagi ta’limning tashkil etish shakllaridan foydalaniladi:

- ✓ ma’ruza;
- ✓ amaliy mashg’ulot;
- ✓ ko’chma mashg’ulot.

O’quv ishini tashkil etish usuliga ko’ra:

- ✓ jamoaviy;
- ✓ guruhli (kichik guruhlarda, juftlikda);
- ✓ yakka tartibda.

Jamoaviy ishlash – Bunda o'qituvchi guruhlarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilma-xil metodlardan foydalanadi.

Guruhlarda ishlash – bu o'quv topshirig'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (3tadan – 7 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra guruhni kichik guruhlarga, juftliklarga va guruhlarora shaklga bo'lish mumkin.

Bir turdag'i guruhli ish o'quv guruhlari uchun bir turdag'i topshiriq bajarishni nazarda tutadi.

Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

Yakka tartibdagi shaklda - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

Zamonaviy fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Yurtimizda texnik ta'linda o'qitish texnologiyalari yuksak pedagogik tamoyillarga asoslangandir. Shuning uchun ham ta'lum jarayonida qo'llanilishi lozim bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tinglovchining o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil, faol bilim olish faoliyatini tashkil etishga qaratish asosiy jihatlardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, modul fanlarining O'quv-uslubiy majmularini yaratishda zaruriy komponent hisoblangan ta'lum texnologiyalarini loyihalashtirishda va uning universal ko'rinishini yaratishda asosiy e'tibor quyidagilarga qaratiladi:

- Tarmoq markazida tahsil olayotgan tinglovchilarining muqaddam amaliy tajriba va ko'nikmalarga ega ekanligini inobatga olib, ularni ishlab chiqarishga yanada yo'naltirish, moslashtirish maqsadida mutaxassislik fanlaridan chuqurroq bilimlarni berish, zamonaviy boshqaruv kadrlariga xos bo'lgan malaka ko'nikmalarini shakllantirish;
- tinglovchilarни ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash, sababiy bog'liqlikda ilmiy xulosalar yasashga o'rgatish, har qanday masalaga tanqidiy, tahliliy va ijodiy yondashish va mushohada yuritish sirlari bilan qurollantirish, o'z mutaxassisliklari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy prognozlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy bilimlarni etkazish;
- pedagogik faoliyatga yo'naltirish bilan bog'liq bo'lgan ta'lumning ustuvor usul va vositalarini o'rgatishdan iborat.

Tinglovchilarga berilayotgan zamonaviy nazariy bilimlar, ularning amaliy orttirgan ko'nikmalarini yanada boyitishga xizmat qilishi lozim. Tinglovchilarning ish o'rinalarini saqlagan holda ta'lum olishlari va ish joylarida ularni soha mutaxassislari ekanligini e'tiborga olib, ularni asosan boshqaruv bilan bog'liq, ya'ni jamoani yagona maqsad sari etaklash, tezkor qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq majmuaviy bilimlar bilan qurollantirish lozim bo'ladi.

Yuqorida aytilgan jarayonlarni mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etish uchun modul fanlarning o'quv-uslubiy majmularini yaratishda zaruriy komponent bo'lmish, ta'lum texnologiyasining quyidagi kontseptual yondashuvlariga ustuvorlik qaratiladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lum. Bu ta'lum o'z mohiyatiga ko'ra ta'lum jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa, ta'lumi loyihalashtiri-layotganda, albatta, ma'lum bir ta'lum oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi rahbar kadrlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan maqsadlaridan kelib chiqkan holda yondashishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lum texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'liqligi va yaxlitligini.

Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi

Раиснинг кириш сўзи, кўрилаётган масала билан аудиторияни таништириш, регламентни тасдиқлаш, иштирокчиларни таништириш



Suhbatli yondashuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limga tashkil etish. Ta'limga beruvchi va ta'limga oluvchi o'rtaida demokratik, tenglik, hamkorlik kabi o'zaro sub'ektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarini baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'limga tashkil etish. Ta'limga mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'limga oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarni haqqoniy qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini aniqlash, dialektik tafakkurni va ularni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Ta'limga (o'qitishni) tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asolangan ommaviy, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

Boshqarishning usul va vositalari: o'quv mashg'ulotining bosqichlari, belgilangan maqsadga erishishda pedagog va tinglovchining faoliyati nafaqat auditoriya ishini, balki mustaqil va auditoriyadan tashqari bajarilgan guruh ishlarining nazoratini belgilab beruvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'uloti jarayonida (o'quv vazifa va topshiriqlarni bajargani uchun baholash, ta'lif oluvchining har bir o'quv mashg'ulotidagi o'quv faoliyatini baholash) va butun semestr davomida ta'lif natijalarini rejali tarzda kuzatib borishni o'z ichiga oladi.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilga ikki tomon fikrlarining almashinuvi.

“Elpig’ich” metodi

“Elpig’ich” metodi - murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o’rganishga qaratilgan.

Metodining mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol metodi tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

“Elpig’ich” metodi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“Elpig’ich” metodi umumiy mavzuni o’rganishning turli bosqichlarda qo’llanishi mumkin.

-boshida: o'z bilimlarini erkin faolashtirish;

-mavzuni o’rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;

-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

“Elpig’ich” metodining afzaligi:

- ✓ kichik guruhlarda ishslash mahorati oshadi;
- ✓ muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati shakllanadi;
- ✓ murosali qarorlarni topa olishi;
- ✓ o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- ✓ xushmuomalalik;

- ✓ ishga ijodiy yondashish;
- ✓ faollik;
- ✓ muammoga diqqatini jamlay olish mahoratlari shakllanadi.

“Elpig’ich” metodining kamchiligi:

- ✓ ta’lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- ✓ ko’p vaqt talab etilishi;
- ✓ shavqun siron bo’lishi;
- ✓ baholash qiyinchilik to’g’dirishi.

Mavzuga tadbig’i: kichik guruhlarni shakllantirish va vazifalar berish:

1-guruhga vazifa: “Nachalo Elektronika”. dasturning kamchiliklari va afzalliklari

2-guruhga vazifa: “Multisim” dasturining kamchiliklari va afzalliklari

3-guruhga vazifa: “Crocodile Technology” dasturining kamchiliklari va afzalliklari

4-guruhga vazifa: “Flowcode” dasturining kamchiliklari va afzalliklari

5-guruhga vazifa: “mikroC PRO for PIC” dasturining kamchiliklari va afzalliklarini vatman qog’ozga yozib taqdimot qiladi.

6- guruhga vazifa: “Proteus ISIS Professional” dasturining kamchiliklari va afzalliklarini vatman qog’ozga yozib taqdimot qiladi.

III. Nazariy materiallar

1-mavzu: Elektron qurilmalarni ishlab chiqishning asosiy tamoyillari va bosqichlari. Mikrokontrollerlarning asosiy parametrlari va ularning xususiyatlari.

Reja:

1. Kirish. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha qisqacha tarixiy ma'lumot.
2. Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi fanining maqsadi va vazifalari.
3. Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish.
4. Avtomatik boshqarish nazariyasining asosiy tushunchalari.
5. Mikroprotsessorni paydo bo'lish sabablari, rivojlanish tarixi.

Tayanch so'zlar: avtomatlashtirish, kibernetika, avtomatika, ishlab chiqarish jarayoni, texnologik jarayon, boshqarish, rostlash, regulator, EHM, kompyuter, mikroprotsessor, komanda, algoritm, operatsiya, printsip. texnologik jarayon, avtomatlashtirish, boshqarish, kibernetika, boshqarish algoritmi, funktsionallash algoritmi, sistema

1.1 Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha qisqacha tarixiy ma'lumot

Inson, eng avvalo, og'ir jismoniy meshnat turlaridan ozod bo'lishga erishgan. Bu o'rinda u tabiiy energiya manbalaridan foydalangan (suv, shamol va b.). Keyinchalik bug' va elektr mashinalarining yaratilishi va ularning ishlab chiqarishda qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan (XVIII asr) fan-texnika taraqqiyotining birinchi bosqichi – ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish fazasi boshlandi. Lekin endi odam har bir stanok va texnologik mashinaga bog'langan bo'lib, undagi ishlab chiqarish protsesslarini kuzatadi (nazorat qiladi), mehnat predmeti parametrlarining maqsadga muvofiq o'zgarishi to'g'risidagi informatsiyalarga ishlov berib, ularni tahlil qilish yo'li bilan texnologik jarayonni bshqarish vazifasini bajarib turadi. Bu davrda odam ishlab chiqarish jarayonining boshqaruvchi elementi bo'lib qoladi. Mashinalashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari endi katta tezlikda o'tadigan bo'ladi, ularni uzluksiz ishlashini turlari ko'payib, murakkablashib bordi. Sanoat uskunalarining kattalashib va kengayib borishi, ular katta aniqlikda ishlashining talab qilinishi, boshqarishni tashkil qilish uchun e'tiborga olinishi kerak bo'ladigan ma'lumotlar sonining juda ko'payib, murakkablashib ketishiga sabab bo'ldi. bunday sharoitda boshqarish funktsiyasini yuajaruvcchi odam boshqarish bilan bog'liq bo'lgan bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Endi u ishlab chiqarish jarayonlarining o'tishi to'g'risidagi ma'lumotlarga tez ishlov berib ulgurmaydigan bo'lib qoldi. Shu sababli ma'lumotlar asosida o'z-o'zidan (avtomatik), odamning ishtirokisiz ishlaydigan yordamchi texnik vositalarni yaratish zaruriyati tug'ildi.

Sanoatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng birinchi texnik vosita rus mexanigi I.I.Polzunov tomonidan (1765 y.) yaratilgan. Bu qurilma bug'

mashinasining bug' qozonidagi suv sathi balandligini bir me'yorda, odam ishtirokisiz saqlab turishga mo'ljallangan qurilma edi.

Ma'lumki qozondagi suv miqdori uning bug'ga aylanishi va suv sarfi sababli kamayadi, natijada undagi bug' bosimi ham o'zgaradi. Bu o'z navbatida bug' mashinasining yomon ishlashiga, uning tezligi o'zgarib turishiga sabab bo'ladi. Shu sababli bug' qozonidagi suv sathi balandligini va bug' mashinasining aylanish tezligini saqlab turish o'sha davrning eng muhim shartlaridan hisoblanardi. Polzunov yaratgan texnik vosita (regulyator) tufayli, odam qozondagi suv sathi balandligini nazorat qilish, agar undagi suv sathi balandligidan kamaysa – suv quyib, ortib ketganda esa qozonga suv kelishini to'xtatib turish jarayonini boshqarib turish funktsiyasini boshqarishdan ozod bo'ldi. Endi bu funktsiyani texnik qurilma – regulyator bajaradi.

1784 yilda ingliz mexanigi J.Uatt ikkinchi muammoni hal qildi – bug' mashinasining aylanish tezligini rostlay oladigan avtomatik qurilma – regulyator yaratdi.

Bu ikki texnik qurilma yordamida o'sha vaqtdagi texnologik mashinalarning ishonchli va o'zgarmas tezlikda ishlashi birmuncha ta'minlangan edi. Ushbu avtomatik qurilmalarda mexanik rostlash usuli qo'llanilgan.

XIX asrda elektr rostlagichni yaratilishi elektr lampalarni ishlab chiqarishini avtomatlashtirishga imkon berdi.

1830 yilda elektr releni kashf etilishi bilan elektromexanik rostlash qurilmalarini yaratishga imkon tug'ildi.

XVIII asrda Nartov A.K jaxonda birinchi bo'lib supportni yaratdi. Bungacha stanokda keskich qo'lda ushlangan xolda detalga ishlov berilar edi.

1880 yilda AQSh da birinchi tokarlik stanokni Sensor qurdi.

Bunday avtomatik qurilmalarning yaratilishi va sanoatda qo'llanilishi texnika taraqqiyotining ikkinchi bosqichi – ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bosqichini boshlanishi bo'ldi. Lekin bu vaqtda avtomatik qurilmalar nazariyasi hali yaratilmagan edi.

Avtomatik qurilmalar nazariyasi va avtomatika fanining yaratilishi hamda rivojlanishida Peterburg texnologiya instituti professori I.A.Vishnegradskiyning 1876-1878 yillarda e'lon qilingan

1. «Bevosita ta'sir qiluvchi regulyatorlar haqida»,
2. «Bilvosita ta'sir qiluvchi regulyatorlar haqida» nomli ikki ilmiy asari katta rol o'ynadi. Shu sababli I.A.Vishnegradskiy avtomatika fani nazariyasining asoschisi bo'lib dunyoga tanilgan.

Fan-texnika taraqqiyotining bu II davrida alohida ob'ektlardagi suyuqlik sathi balandligi, texnologik mashinalarning aylanish tezligi va boshqalarni rostlash kabi eng oddiy operatsiyalarni avtomatik boshqarish uchun xizmat qiladigan, regulyator deb ataladigan texnik qurilmalarni hisoblash, qurish masalasi hal qilindi; texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun xizmat qiladigan lokal (mahalliy) avtomatik sistemalarning eng oddiy turlari yaratildi. Bu davrda o'zaro

ma'lum tartibda bog'langan, belgilangan maqsadga muvofiq bir-biriga ta'sir ko'rsatadigan va o'zining asosiy funktsiyasini odam ishtirokisiz bajaradigan, boshqauvchi (regulyator) va boshqariluvchi (ob'ekt) qismlardan iborat bo'lgan avtomatik boshqarish sistemalari yaratila va takomillasha boshladi.

Elektron lampalar va yarim o'tkazgichlar yaratilishi bilan yanada davriy va murakkab avtomatik boshqarish tizimlari ishlab chiqish mumkin bo'ldi.

1944 yilda EHM yaratilishi natijasida juda murakkab texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishga sharoit tug'ildi. Bunda xisoblash jarayoni, loyixalash, rejalashtirish, ilmiy - tadqiqot, ishlab chiqarish kabi ishlari avtomatlashtirildi.

Sonli dastur yordamida boshqarish tizimlar dasturni tayyorlash, uni boshqarish blokiga kiritish qamda stanok va texnologik jarayonlarni boshqarishni moslashuvchan qildi. Shuningdek o'zi moslashadigan boshqarish tizimlarni yaratilishga imkon tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasining rivojlanishida avtomatlashtirish katta rol o'yнayapti. Hozirgi fan - texnika taraqqiyotida EHM larning keng qo'llanilishi, jumladan xar xil sanoat tarmoqlarida, ishlab chiqarishlarda, ilmiy- tadqiqot, loyixalash va rejalashtirish ishlarida, qamda odam - mashina tizimida boshqarish vazifasini amalga oshiradi, avtomatlashtirish faqat texnikaning o'zgarishigagina emas balki jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta ta'sir etadi.

Respublikamizda xam EHM lar barcha ishlab chiqarish tarmoqlarida keng qo'llanilmoqda. Ularga mashinasozlik, avtomobilsozlik, to'qimachilik, qishloq xo'jalik kabi sanoatlar kiradi. Ayniqsa mashinasozlik korxonalarida avtomatlashtirish ishlari muxim axamiyatga ega. Chunki bu sanoat boshqa ishlab chiqarish soxalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Avtomatlashtirish bilan ish unumdoorligi oshadi, maxsulot tan narxi kamayadi, maxsulotning sifati yaxshilanadi va odam og'ir jismoniy ishlardan va murakkab boshqarish ishlaridan ozod qilinadi.

1.2 Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi fanining maqsadi va vazifalari.

Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi fani texnik fan bo'lib, sanoatda va boshqa sohalarda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va bu borada qo'llaniladigan mikroprotsessor texnikasi bo'yicha boshlang'ich ma'lumot beradi.

Ushbu fan avtomatikaning asosiy tushunchalari, boshqarish printsiplari, boshqaruvchi tizimlarning turlarini, ularni tasvirlashni hamda tarkibiy qismlarini o'rgatadi. Mikroprotsessor texnikasi bo'yicha esa – mikroprotsessor qurilmasi, uning turlari, komanda (buyruq) tizimlari va ular asosida oddiy algoritmlarni dasturlash usullarini o'rgatadi. Hozirgi kunda zamонавиу texnika vositalarida jarayonlarni avtomatlashtirish tobora keng tadbiq etib borayotganligi sababli bu fan boshqa maxsus texnika va mutaxassislik fanlariga nazariy asos bo'ladi.

Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi kursi avtomatik sistemalar nazariyasi va ularni tuzish usullari, avtomatik boshqarish va rostlash

printsiplarini, texnologik parametrlarni o'lhash, avtomatik nazorat, himoya va signallash tizimlarining ilmiy printsiplari va tavsifnomalarini, shuningdek, ularni tuzish uchun qo'llaniladigan texnik vositalar - avtomatika elementlarining tuzilishi, xususiyatlari va qo'llanilishini o'rganadi.

Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi kursini o'rganishdan asosiy maqsad - ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishni keng rivojlantirish va takomillashtirish asosida texnologik mashinalarning optimal ko'rsatkichlarga ega bo'lishini va shu bilan birga mehnat madaniyatining yuqori bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Kursning asosiy vazifasi – bo'lg'usi muhandis-mexaniklar va texnologlarga konstruktor va iqtisodchi muhandislarga avtomatik boshqarish nazariyasi asoslarini o'rgatish, o'lhash metodlari, o'lchov asboblarining tuzilishi va ishslash printsipi, sxemalari va xususiyatlarini tushuntirish; avtomatikaning kontaktli va kontaktsiz elementlarining tuzilishi, ishslash printsipi va tavsifnomalarini o'rgatish va shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik boshqarish, texnologik parametrlarni avtomatik nazorat, himoya va signallash avtomatika tizimlarining sanoatda qo'llanilishi, mikroprotsessor texnikasining tuzilishi, ishlashi va qo'llanilish sohalari haqidagi bilimga ega bo'lishlariga ko'maklashishdan iborat.

Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi fani dinamik sistemalarda mavjud bo'ladigan bog'lanishlar va avtomatik boshqarishlarning umumiy qonunlarini o'rganadigan kibernetikaning texnikaga oid tarmog'i bo'lib, avtomatik tizimlar nazariyasini, ularni hisoblash va qurish printsiplarini o'z ichiga oladi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish uchun xizmat qiladigan tadbiqiy fan hisoblanadi.

Kibernetika – grekcha so'z bo'lib, «boshqarish» degan ma'noni bildiradi va uning muhim amaliy ahamiyatg egaligi shundaki, u avtomatlashtirish fanining nazariy asoslarini o'z ichiga oladi.

Kibernetika jonli organlar, jamiyat va mexanizmlardagi boshqarish qonunlari o'zoro o'xshash va umumiy bog'lanishda ekanligini tasdiqlaydigan fandir. Bunda turli fizik tabiatga xos bo'lgan tizimlardagi boshqarish jarayoniga umumiy nuqtai nazardan qaralib, ular uchun boshqarishning yagona matematik nazariyasi yaratilishi mumkinligi aytildi. Kibernetika avtomatlashtirish fanining nazariy asoslarini o'z ichiga oladi. Kibernetika fani uch asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi.

1. **Texnik kibernetika** - sanoat kibernetikasi (avtomatika). Bunda sanoat ishlab chiqarishi ob'ektlaridagi avtomatik boshqarish jarayonlari va avtomatika qurilmalari o'rganiladi.
2. **Biokibernetika.** Bunda biologik tizimlardagi boshqarish jarayonlari o'rganiladi.
3. **Iqtisodiy kibernetika.** Bunda iqtisodiy tizimlar (xalq xo'jaligi) dagi boshqarish jarayonlari o'rganiladi.

Kibernetika ma'lumotlar va ularni tartibga solish ishlari bilan shug'ullaniladi.

Murakkab dinamik sistemalarni boshqarish haqidagi fan – texnik kibernetika alohida (lokal) avtomatik rostlash sistemalaridan tortib hozirgi vaqtida vujudga

kelayotgan murakkab agregat, tsex va zavod ishlab chiqarishini boshqarishning “odam – mashina”dan iborat avtomatlashti-rilgan sistemalarining nazariy asoslarini o’rganadi.

Elektron qurilmalarni ishlab chiqarish texnikasi kursi texnik kibernetikaga tegishli bo’lib, sanoat ishlab chiqarishini avtomatik boshqarish, rostlash va boshqa avtomatlashtirishga oid masalalarni o’rganadi.

1.3 Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish texnika taraqqiyotining asosiy yo’nalishlaridan biri bo’lib, ishlab chiqarish samaradorligini tinimsiz oshirish va mahsulot sifatini yuqori darajalarga ko’tarish uchun xizmat qiladigan omil hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish iborasining izohli lug’atda **“energiya, materiallar, ma’lumotlarni olish, maqsadga muvofiq o’zgartirish, uzatish jarayonlarida odamni qisman yoki to’la ishtiroy etishdan ozod qiladigan texnik vositalar, iqtisodiy-matematik metodlar hamda boshqarish tizimlarini ishlab chiqarishda qo’llash”** deb ta’riflanishi fan-texnika taraqqiyotining bu sohasi juda katta iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatlarga ega ekanligini ko’rsatadi.

U ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligini va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko’rsatkichi bo’lmish ishlab chiqarish samaradorligining uzlusiz oshishini ta’minlaydi; jismoniy hamda aqliy mehnat bilan shug’ullanuvchilar orasidagi tavofutni asta-sekin yo’qolishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining ish unumдорligi va mahsulot sifatini oshirish yo’llaridan biri elektron hisoblash mashinalari, robot va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan ishlab chiqarishni avtomatlashtirishdir. Xalq xo’jaligining asosiy tarmoqlarida, jumladan oziq-ovqat hamda kimyo sanoatida alohida mashina, agregat mexanizmlarni avtomatlashtirishdan tsex, texnologik bo’lim va zavodlarni to’liq avtomatlashtirishga o’tilayapti. Natijada texnologik jarayonlarning boshqarishni avtomatlashtirilgan sistemalari (TJABS), korxonalarining boshqarishni avtomatlashtirilgan sistemalari (KABS) hamda to’liq tarmoqlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan sistemalari (TTBAS) yaratilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda odam qo’l mehnatini maxsus avtomatik qurilmalar ishi bilan almashtirish jarayoniga **avtomatlashtirish** deyiladi.

Berilgan xom ashyo yoki yarim fabrikatdan tayyor mahsulot olish uchun yo’naltirilgan ta’sirlar to’plamiga **ishlab chiqarish jarayoni** deyiladi. Har qanday ishlab chiqarish jarayonini quyidagi asosiy elementlarga ajratish mumkin:

1. Oddiy ishchi jarayonlar;
2. Boshqarish operatsiyalari;
3. Nazorat operatsiyalari.

Oddiy ishchi jarayonlari quyidagilardan iborat:

- a) Sof ishchi jarayonlar;
- b) O’rnatish operatsiyalari;
- v) Transport operatsiyalari;

g) Xizmat ko'rsatish operatsiyalari.

Masalan, non ishlab chiqarish jarayonida sof ishchi jarayoni bo'lib xamirni bo'lish apparatida xamir zuvalalarini olish hisoblanadi. Bu erda o'rnatish operatsiyasida apparatning ma'lum tur yarim fabrikat olish uchun ishchi organlarini o'rnatish tushunilsa, transport operatsiyasida esa xamir zuvalalarini keyingi apparatga (masalan, xamir maydalash apparatiga) transportyor orqali uzatish tushuniladi, xizmat ko'rsatish operatsiyasida esa mashinani o'z vaqtida tozalash yoki yog'lash zarur.

Boshqarish operatsiyasi ikki turga bo'linadi:

1. Jarayonni normal boshqarish;
2. Mashina va mexanizmlarni berilgan talablarni bajarish uchun tuzatish yoki moslash bilan bog'liq o'rnatish operatsiyalari.

Nazorat operatsiyasi quyidagilardan tuzilgan:

- ✓ Jarayon natijalarini berilgan talab bilan muvofiqligini tekshirish;
- ✓ Jarayon borishini berilgan talabdan o'zgargan vaqtida (jarayon kattaliklarini normal qiymatdan o'zgargan vaqtida yoki avariya holatlarida) himoyalash operatsiyasi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshi olib borish uchun nazorat qamda boshqarish operatsiyalari bir-biri bilan bog'liq olib borilishi zarur. Chunki nazorat operatsiyasini natijalari asosida boshqarish operatsiyalari yaratiladi. Ishlab chiqarishning borishida odamni ishtiroki jarayon borishini nazorat-o'lchov asboblari yordamida kuzatish qamda mashina va mexanizmlar ishini boshqarishdan iboratdir.

Avtomatlashtirish ierarxik strukturaga ko'ra 3 bosqichda olib boriladi:

- 1-bosqich. Xususiy avtomatlashtirish;
- 2-bosqich. Kompleks avtomatlashtirish;
- 3-bosqich. To'liq avtomatlashtirish.

Xususiy avtomatlashtirishda bir-biriga bog'liq bo'lмаган asosiy ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bunda alohida agregat, apparat yoki texnologik qurilmalar alohida-alohida avtomatlashtiriladi.

Kompleks avtomatlashtirishda bir-biriga bog'liq bo'lgan asosiy ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Alohida tsexlар, texnologik bo'lim va texnologik tizimlarini avtomatlashtirish kompleks avtomatlashtirishning mazmuni bo'lib hisoblanadi.

To'liq avtomatlashtirishda esa bir-biriga bog'liq asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bunda ishlab chiqarish korxonasi to'liqligicha avtomatlashtiriladi (zavod-avtomat, tsex-avtomat, restoran-avtomat va hokazolar).

1.4 Avtomatik boshqarish nazariyasining asosiy tushunchalari.


Ilmiy-texnika taraqqiyotining samaradorligini oshirish yo'llaridan biri ishlab chiqarishni avtomatlashtirishdir.

Yangi maqsulot (buyum) tayyorlash uchun yo'nalgan ishlab chiqarish jiqozlari kompleksi moddiy va energetik oqimlar xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotga ishlov berish va qayta ishlash usullarining vaqt bo'yicha ketma-ket almashishiga **texnologik jarayon** deb ataladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini to'g'ri kechishi yoki optimal olib borilishi uchun sistemani boshqarish algoritmiga muvofiq ularga aniq ta'sirlar yuborilishi talab qilinadi. Berilgan funktsionallash algoritmini bajarish uchun boshqariladigan ob'ektga tashqaridan beriladigan ta'sirlar xarakterini aniqlaydigan yozuvlar to'plamiga **boshqarish algoritmi** deyiladi.

Biror bir qurilmada (boshqariladigan ob'ektda) yoki sistemada ishlab chiqarish jarayoni to'g'ri bajarilishini ta'minlaydigan yozuvlar to'plamga **funktsionallash algoritmi** deyiladi.

Sanoatda sistema texnologik jarayon, agregat, mashina, apparat, qurilma, ishlab chiqarishni nazorat va boshqarish qurilmalarini o'z ichiga oladi. Har qanday ishlab chiqarish jarayonini avtomatik boshqarish sistemasi bir-biri bilan uzviy bog'langan qismlardan iborat: Texnologik boshqarish ob'ekti (TBO) va boshqarish qurilmasi (BQ).



1-rasm. Texnologik ob'ektlarni avtomatik boshqarish sistemasining struktura sxemasi.

Avtomatik sistemalarni kichik va katta sistemalarga bo'lish mumkin. **Kichik sistemalar** ishlab chiqarish jarayoni xossalari bilan aniqlanib u bilan chegaralanadi. **Katta sistemalar** zsa kichik sistemalardan son va sifat jihatidan farq qilib, kichik sistemalar to'plamidan iboratdir.

Hozirgi zamон hisoblash texnikasi va avtomatik qurilmalarning rivojlanishi natijasida texnologik jarayonlarda avtomatlashtirilgan boshqarish sistemalari TJABSni qo'llash talab qilinmoqda.

Texnologik boshqarish ob'ekti (TBO) — texnologik jihoz va unda ishlab chiqarish jarayoni reglamentiga muvofiq ravishda kechadigan texnologik jarayonlar to'plamidir. TBO ga quyidagilar kiradi:

1. Texnologik agregat va qurilma (qurilmalar guruhi);
2. TSexlar yoki texnologik maydonlar;
3. Ishlab chiqarish majmuasi.

Qabul qilingan boshqarish kriteriyasiga muvofiq texnologik jarayonlarni boshqarish uchun qo'llaniladigan qurilma texnologik jarayon avtomatlashtirilgan boshqarish sistemasi (TJABS) deyiladi. TJABS boshqarish kriteriyasi — boshqarish ta'siri natijasida texnologik ob'ektni sifatini sonli aniqlaydigan nisbatdir. (Masalan, mahsulot tannarxi, ish unumдорligi, sifat yoki chiqariladigan mahsulotning texnik ko'rsatkichlari).

Texnologik jarayonlarda odamlarning ishtirok etishiga ko'ra avtomatlashtirishni quyidagilarga ajratish mumkin: avtomatik nazorat, avtomatik rostlash va avtomatik boshqarish.

Avtomatik nazorat — texnologik jarayon haqida operativ ma'lumotlarni avtomatik ravishda qabul qilish va uni qayta ishlash uchun kerakli bo'lgan sharoitlarni ta'minlaydi.

Avtomatik nazorat sistemasi (2,a-rasm) o'lchanadigan kattalikni berilgan qiymati bilan taqqoslab, natijaii o'lchaydi. O'lchanadigan kattalik X nazorat obekti KO dan datchik D ga beriladi va qulay bo'lgan X qiymatga o'zgartiriladi. X signal taqqoslash elementi TE da X etalon signal bilan taqqoslanadi. Etalon signal X topshiriq bergich TB dan beriladi. Taqqoslash natijasida hosil bo'lgan X3 signal o'lchash asbobi O'A da o'lchanadi. Avtomatik nazorat ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirishning birinchi pog'onasi qisoblanadi. Avtomatik nazorat sistemasi quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- ✓ ishlab chiqariladigan mahsulotni va sarflanadigan energiyani hisobini olish;
- ✓ issiqlik, bosim, elektr tok va boshqa ishlab chiqarish jarayonlarining kattaliklarini tekshirib turish;
- ✓ xizmat o'tovchi shaxsni ishlab chiqarish jarayonini borishi to'g'risida ogoh qilish (signallash).


Avtomatik rostlash -texnologik jarayonning rostlanadigan kattaliklarini avtomatik rostlagichlar yordamida texnologik jarayon reglamentida belgilangan qiymatda saqlab turadi yoki oldindan berilgan qonun bo'yicha o'zgartiradi. Bu qolda odam faqat rostlash sistemasining to'g'ri ishlashini nazorat qiladi.

Avtomatik rostlash sistemasi — yopiq dinamik sistema bo'lib (2,b-rasm) teskari bog'lanishga egadir. Bu erda taqqoslash elementiga datchikda o'zgartirilgan X va topshiriq bergichdan X signallar taqqoslanadi, natijasi avtomatik rostlagichga beriladi. Bu natija X1 — X2 ga tengdir. Avtomatik rostlash jarayonida shunday rostlovchi ta'sir ishlab chiqarilishi kerakki, natijada X3 nolga yoki eng kichik songa intilsin (X3->0).

- a) - avtomatik nazorat sistemasi;

- b) - avtomatik rostlash sistemasi;
v) - avtomatik boshqarish sistemasi.


Avtomatik boshqarish — texnologik operatsiyalarni belgilangan ketma-ketlikda avtomatik ravishda bajarilishini va boshqarish ob'ektiga nisbatan ta'sirlarning muayyan muttasilligini topshiriq bergichdan keladigan signal bo'yicha ishlab chiqishdan iborat. Boshqaruvchi qurilma bosh X₀ signalni qabul qilib uni boshqarish signali X ga aylantiradi va bajaruvchi qurilma BQ orqali boshqarish ob'ekti BO ga ta'sir qiladi (2, v - rasm).



2-rasm. Avtomatik sistemalarni funksional sxemalari.

Ko'pincha mikroprotsessor to'plamlarida (MPT) katta integral sxemalar (KIS) larning yo'qligi sababli funktsiyalarni apparat yo'li bilan sintez qilishga to'g'ri keladi. Loyihalashtirishning keyingi bosqichi uchta asosiy qadamdan iborat bo'lgan MPT ni tanlashni amalga oshirishdir.

1. Dasturiy ta'minot nuqtai nazaridan MPning shunday xossalariini tahlil qilish kerakki, bular buyruqlar to'plami va manzillash usullari, darajalar, umumiyoq tarkibdagi registrlar soni, stek xotira turi, uzilishlarni qayta ishlash vositalari va xokazo mikrodastur qatlamlari, sektsiyaviy MP uchun buyruqlar tizimini tanlash, ularni ishlatish mikrodasturini ishlab chiqish paytida mikrobuyruq formatini tanlash, keyingi mikrobuyruq manzilini shakllantirish mexanizmini yaxshi o'rGANIB chiqish, kodlarni uzatish taktlari va uzatish paytidagi kechikishlarni e'tiborga olgan xollarda qiyinchilik tug'ilsa, buyruqlar tizimini tanlash lozimdir.



1.1-rasm. MP bazasida qurilmalarni loyihalashtirishning asosiy bosqichlari

2. Tizimli loyihalashtirishdan kelib chiqkan xolda o’zida MP dan tashqari doimiy va operativ xotira qurilmasi (DXK va OHQ) periferiya qurilmalari bilan bog’lik interfeys moduli, xotiraga bevosita ulanishni boshqarish, shinalar shakllantiruvchisi, bufer registrlari, takt generatori, tizim kontrolleri kabi qurilmalarni o’z ichiga olgan MPTni taxlil qilish lozim. Quyida MPTni tanlashga ta’sir kiluvchi omillar (darajalik, buyruq to’plami, manzillash qurilmasi, MP arxitekturasи, mikrodasturlanish, buyruq bajarish vaqtি, seriya va mikrosxema to’laligi, xujjatlar va xokazo) ning MPTni ishlab chiqishga ta’siri keltiriladi.

3. Dastur ta'minotini ishlab chiqish va ishga tushirish nuqtai nazaridan belgi tilidan ikkilik ob'ekti, kodga o'tkazuvchi translyator, va narxi sezilarli darajada oshar edi.

MPT apparat vositalarini ishlab chiqish va ishga tushirish bosqichi bilan bir vaqtda bajarilayotgan MPT dastur ta'minotini ishlab chiqish bosqichini kengroq ko'rib chiqamiz. Ushbu bosqichlar nixoyasida apparat va dasturiy vositalarning integratsiyasi va MPT ning rezident xolatida ishga tushirish bajariladi.

Umumiy xossalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ✓ tizim echishi lozim bo'lgan muammoning aniq quylishini,
- ✓ -rezident dastur ta'minoti – xizmatchi dasturlar to'plamining iste'molchining ustuvor dasturi ishlatadigan Mikro EHMda qurilishini,
- ✓ apparat qurilmalari va tashqi signallar ro'yxatini,
- ✓ dasturiy modul aloqalarining sharxini,
- ✓ tashqi qurilmaga qaratilgan interfeys tizimining to'liq sharxini,
- ✓ iste'molchiga kirish va chiqish ko'rsatkichlari sharxi berilgan qo'llanmani oladi.

Ko'pchilik MPTlarning ishlatilishi ancha murakkab muammolarning echilishi bilan bog'lik. Shuning uchun umumiy muammoning bir necha mayda va boshqariluvchi bo'laklarga bo'lish maqsadga muvofiq. Har bir bo'lakning dasturiy qurilmasi blok yoki modul deyiladi.

Murakkab bloklar shu darajada subbloklarga bo'linadiki, har bir subblock ishlash algoritmi etarlicha soddalashtirilgan bo'lsin. Bunday usul tepadan pastga qarab loyihalashtirish deyiladi.

Asosiy bloklar funksional xossalardan ajratib olinadi va boshqaruvi (asosiy dastur) blokining tashqi qurilmalari interfeys blokini, tanaffuslarga ta'sirchanlik blokini, turli ko'rsatkichlarni almashtirish blokini, kirish-chiqish blokini uz ichiga oladi.

Kirish va chiqish qiymatlarining formatini, oralik va yakuniy natija formatini, ko'rsatkichlarning xotirada joylashtirish usulini tanlay bilish va kaydlash lozim.

Ko'rsatkichlarni massivlar jadvali, ruyxatlar va xokazolar yordamida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq.

Ko'rsatkichlarni to'g'ri tashqil qilish dasturning uzunligini qisqartirishga va bajarilish vaqtini kamaytirishga yordam beradi.

Funksional bloklar ajratilgandan so'ng tanlangan MP ga moslangan algoritmlari ishlab chiqiladi.

MP xususiyatlarini aniqlaydigan maxsus xotira, ishchi xotira, stek, kirish-chiqish qism dasturi, bufer xududlaridan parametrlarni uzatish uchun umumiy xududlar, kirish-chiqish ishlatilgan xolda xotira portlari, tizim dasturlari uchun rezident xotira.

Xotira oblastlarini adreslarni deshifratsiya qilish va ularni o'zgartirishni osonlashtirish uchun usha betga joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Oddiy dasturlarning ishga tushirilishi tugatgach, keyingi bosqich qism dasturlarga, va shu tariqa asosiy dasturgacha o'tib boriladi. Ishga tushirish dasturning ishchi xolatida tekshiruvchi funktsional test bilan tugaydi. Ayrim xollarda bunday test o'z-o'zini tekshiruvchi qurilma tariqasida dastur ichiga kiritilishi mumkin. Loyihalashtirishning har bir bosqichida ishlatiladigan maxsus yordamchi vositalar mavjud va ularni ayrimlari tizim ishlab chiqarish, MP ni ishlatishdan tashqil topgan dasturiy ta'minot tizimini birlashtirishda foydalaniladi.

1.5.1 Mikroprotsessorni paydo bo'lisl sabablari, rivojlanish tarixi.

EHMni Mikroprotsessor [MP] asosida qurbanimizda EHM bahosi avvalgi qurilgan EHMga nisbatan 1000—10000 marta, o'lchov kattaliklari esa (2 - 3)*10000 marta kamayadi.

Mikroprotsessorlarni qo'llash o'lchagich qurilmalarni "intellektual" qurilmalarga aylantiradi. Bu qurilmalar o'lchanayotgan ma'lumotlarni kerakli bo'lgan darajada matematik qayta ishlov o'tkazishga qodirdir, hamda ularni insonga qulay bo'lgan ko'rinishda chiqarib beradilar.

2-vazifa: MP bazasida qurilmalarni loyihalashtirishning asosiy bosqichlarini ketma-ketligini aniqlang.



To'g'ri javob:



2-amaliy mashg'ulot: "Multisim" dasturi.

Mavzu: Simmetrik multivibratorning tuzilish sxemasini o'rGANISH, uning ishlashini har xil rejimlarda tadqiq etish.

Ishning maqsadi: "Multisim" modellashtirish dasturini o'rgani. Simmetrik Multivibratorning tuzilish sxemasini o'rGANISH, uning ishlashini har xil rejimlarda tadqiq etish.

Masalaning qo'yilishi

Mashg'ulot vazifalari:

- Vizual loyihalash bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- Multivibrator xaqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Multisim dasturi xaqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Multisim dasturi komponentalari bilan tanishish;
- Multisim dasturida multivibrator sxemasini yig'ish va ishlatish.

Uskunalar: Multisim12 sxemotexnik modellashtirish muhiti.

Nazariy ma'lumotlar va hisoblash formulalari

Multivibrator – bu relaksatsion (yozilish) generatori bo'lib, ikki elementli sig'imli aloqali kuchaytirgichdan iborat. Uning chiqishi kirishi bilan ulangan bo'lib, musbat teskari aloqa yopiq zanjirini hosil qiladi. Ikki xil multivibratorlar turi bor: avtotebranuvchi, ya'ni turg'un muvozanat holatiga ega bo'lмаган, hamda poylovchi (kutuvchi, odnovibratorы) multivibrator, bitta turg'un muvozanat holatiga ega bo'lган, uning chiqishida boshlab boshqa kvaziturg'un holatga o'tiladi va keyin ixtiyoriy ravishda boshlang'ich holatiga qaytiladi.

1. Avtotebranuvchi multivibrator

Avtotebranuvchi multivibratordagи tebranish jarayonlari, energiya manbaidan kelayotgan energiyaning tegishli kondensatorlarda galma-gal yig'ilishi va ularning tranzistorlar zanjiri orqali zaryadsizlanishi tufayli yuz beradi.

Oddiy simmetrik tranzistorli multivibratororda, u odatda o'xshash




Рис. 1

elementlardan tashkil topgan: VT_1 va VT_2 tranzistorlar, $R_{K1} = R_{K2} = R_K$; $R_{B1} = R_{B2} = R_B$ qarshilikli rezistorlar va $C_1 = C_2 = C$ sig'imli kondensatorlar; $R_K \ll R_B$ bo'lganda (1, a-rasm), tranzistorlar kalit rejimida ishlashadi, va bunda ularning bittasi ochiq bo'lganda boshqasi yopiq bo'ladi va aksincha.

Multivibrator ikkita kvaziturg'un holatga ega: aytaylik, ulardan bittasida tranzistor VT_1 ochiq (to'yingan holatda bo'lsin), ikkinchi tranzistor VT_2 esa yopiq holatda (kesish (otsechka)holatida bo'lsin). Ammo, bu kvazimuvozanat holati noturg'un bo'ladi, chunki VT_2 yopiq tranzistor bazasidagi manfiy potentsial S_1 kondensatorning R_{B2} rezistor orqali zaryadsizlanishi davomida U_p ta'minlash manbaining musbat potentsialiga intiladi. VT_2 tranzistorning bazasidagi potentsial nolga yaqin paytda, kvazimuvozanat holati buziladi, yopiq VT_2 tranzistor ochiladi va ochiq VT_1 tranzistor yopiladi va multivibrator yangi kvazimuvozanat holatiga o'tadi. Chiqishda esa deyarli to'g'riburchakli $N = T / t_u \approx 2$ triqish (skvajnost)ga ega $u_{v_{bx}}$ impulslar hosil bo'ladi(1,b-rasm).

Hosil bo'lgan impulslarning amplituda taxminan U_p ta'minot kuchlanishiga taxminan teng bo'lib, simmetrik multivibratorning tebranish davri:

$$T = 2R_B C \ln 2 \approx 1,4 R_B C .$$

Nosimmetrik multivibratorda (sxemaning sig'im va rezistiv (qarshilik) elementlarining parametrlari teng bo'lmasganda), t_i impuls va pauzni t_n tanffus(pauza)ning davomiyligi birxil bo'lmaydi, chunki VT_1 i VT_2 tranzistorlarning yopiq holatlarining davomiyligi har xilligi tufayli.

Multivibratori OK asosida yig'ish mumkin. OK da kuchaytirish koeffitsienti kattaligi tufayli ($K_u = 10^5 \dots 10^6$) chiqish kuchlanishi kirish kuchlanishiga faqat kichik signallarda mutanosib (proportsional) (birklari milli- va mikrovolt). Oldin aytib o'tilganidek, katta kirish signallarida $u_{v_{bx}}$ chiqish kuchlanishi ikkita $U_{v_{bx}}^+$ va $U_{v_{bx}}^-$ qiymatga ega boshlishi mumkin (2,a-rasm).




Рис. 2

$u_{vx} - u_{os} = 0$ bo'lgandagi, u_{vx} kirish kuchlanishi,

$$U_1 = U_{\text{вых}}^- \frac{R_1}{R_1 + R_2} = \beta U_{\text{вых}}^-; \quad U_2 = U_{\text{вых}}^+ \frac{R_1}{R_1 + R_2} = \beta U_{\text{вых}}^+,$$

Bu erda, u_{os} – teskari aloqa kuchlanishi; $\beta = R_1 / (R_1 + R_2)$ – teskari aloqa koeffitsienti (2, b, v-rasm).

Avtotebranuvchi multivibrator sxemasida (2,b-rasm), R_3C - halqa (zveno) orqali ikkinchi teskari aloqa yuzaga keladi va uning hisobiga o'z-o'zidan uyg'onish (samovozbujdenie) rejimi paydo bo'ladi.

Tasavvur qilaylik, t_1 paytida (2, v-rasm) $u_{\text{вых}}$ kuchlanishi $U_{\text{вых}}^-$ dan $U_{\text{вых}}^+$ ga sakrab o'zgardi. S kondensator $U_{\text{вых}}^+$ ta'siri ostida R_3 orqali oqayotgan tok tufayli zaryadlana boshlaydi, va bunda u_C kondensatordagi kuchlanish eksponentsal qonun bo'yicha $U_{\text{вых}}^+$ ga intiladi. u_C bu invertorlovchi kuchaytirgichning u_{vx} kirish kuchlanishi, va qachon t_2 paytida U_2 ga erishganda, OK ning chiqish kuchlanishi $U_{\text{вых}}^+$ dan $U_{\text{вых}}^-$ gacha sakrab o'zgaradi.

Ko'rib o'tilgan printsipga asoslangan generatorlarni *relaksatsion*, ya'ni yozilish generatorlari deb ataladi. Bundan multivibratorning tebranish davri:

$$T = 2R_3C \ln(1 + 2R_1/R_2), \text{ ga teng.}$$

Bunda $t_{i1} = t_{i2}$. Bunday ko'rinishdagi tebranishlar *meandr* deb ataladi.

2. Uchburchak shaklli impulslar generatori

Uchburchakli impulslar RC -generatori sxemasida (3,a-rasm), OK1 asosida bajarilgan triggerning u_{vx} kirish kuchlanishi bo'lib, OK2





Рис. 3



sos
ida yig'ilgan invertor-integratorordan olingan $u_{\text{вых}}^+$ kuchlanish xizmat qiladi.

Integratororning ishlashini izohlaysiz. S kondensatordan o'tayotgan i_C tok $i_C = -C \frac{du_{\text{вых}}^+}{dt}$ ga teng, bunda $u_C = u_{\text{вых}}^+$, chunki A nuqtadagi potentsial

nolga yaqin (3,a-rasm). OK1 va OK2 lar orasidagi aloqa toki $i_C = u_{\text{vibx}} / R$ ga teng. Buni 0 dan 1 gacha integrallab va tenglikning har ikkala tarafini $-S$ ga bo'lib, $-C \frac{du_{\text{vibx}}}{dt} \approx \frac{u_{\text{vibx}}}{R}$, quyidagini olamiz:

$$u_{\text{vibx}} 2 - u_{\text{vibx}} 0 \approx - \frac{1}{RC} \int_0^t u_{\text{vibx}} dt$$

Bu erda $u_{\text{vibx}} 0 = t = 0$ bo'lganda generatordagi kuchlanish.

Tasavvur qilaylik, t_1 paytida (3, b-rasm) triggerdan OK2 kirishiga U_{vibx}^+ kuchlanishi berilgan. Binobarin, $U_{\text{vibx}}^+ = \text{const}$ (doimiy qiymatning integrali t vaqtga proportional), u holda $u_{\text{vibx}} 2$ to'g'ri chiziq bo'yicha o'zgaradi va bu o'zgarish t_2 paytda U_2 erishguncha davom etadi va bunda trigger qayta ulanadi (pereklyuchitsya) va integrator kirishiga kuchlanish beriladi. t_2 paytdan boshlab kondensator zaryadlanib boshlaydi va undagi kuchlanish t_3 paytgacha chiziqli ravishda oshib boradi, undan keyin jarayonlar qayta takrorlanadi.

Uchburchakli kuchlanish amplitudasi triggerning qayta ulanish kuchlanishi bilan aniqlanadi va $|U_{\text{vibx}}| \cdot R_1 / R_2$ ga teng. Tebranishlar davri esa $T = 4RCR_1 / R_2$ ga teng.

3. Poylovchi multivibrator

Poylovchi (poyloqchi) multivibrator (odnovibrator), bitta turg'un muvozanat holatiga va ikkinchi **kvazimuvozanat** deb ataladigan, barqaror bo'lмаган muvozanat holatiga ega. Tashqi ishga tushiruvchi generator impulsi ta'siri ostida multivibrator muvozanat holatidan chiqadi, va energiya qayta taqsimlanishining ichki jarayonlari tufayli, ixtiyorish ravishda yana turgunlik holatiga qaytadi.

Poyloqchi multivibratorni, multivibrator ishini to'xtatish orqali olish mumkin. Agar, sxemada (2,b-rasm) S kondensator VD diod bilan shuntlansa (ris. 4), unda kondensator U_1 darajadan




Рис. 27.4

$u_S = 0$ gacha zaryadsizlanib (2, v-rasmga qarang), U_{vibx}^+ , ta'siri ostida zaryadlanishdan to'xtaydi, chunki R_3 rezistorning toki ochiq diod orqali o'tadi, va bu degani kondensatordagi kuchlanish U_2 , darajaga etmaydi va avtotebranishlar uziladi.

Ishga soluvchi impuls ma'lum qutblanishga ega bo'lishi lozim, hamda multivibratording elkalaridan biridagi yopiq kuchaytirish elementini ochish uchun va uni yoppasiga (lavinoobrazno) kvaziturg'un holatga o'tishi uchun tegishli amplituda va davomiylikka ega bo'lishi kerak.

4. Arrasimon kuchlanish generatori (AKG)

To'g'ri chiziq bo'yicha o'sib boruvchi kuchlanishlar kondensatordan olinadi, agarda undagi u_C kuchlanishga bog'liq bo'lmasan doimiy $i_s = \text{const}$ tok bilan zaryadlansa, hamda bu tokka yuklama qphiligidagi tok ta'siri bartaraf etilsa.

U holda, $i_C = Cdu_C/dt = \text{const}$ (o'zgaruvchilarni ajratgan holda) ifodani vaqt bo'yicha integrallasak, quyidagi natijani olamiz:

$$\int du_C = \frac{i_C}{C} \int dt \quad \text{yoki} \quad u_C = \frac{i_C}{C} t.$$

OK li sxemadagi $i_C = I_C = \text{const}$ shart (5,a-rasm) u_{vx} doimiy kuchlanish bilan ta'minlanadi. VT tranzistor yopiqligida, t_n vaqt davomida (5, b-rasm) S kondensatorning zaryadlanishi yuz beradi va u_C chiqish kuchlanishi to'g'ri chiziq bo'yicha o'sadi. u_p impuls berilganda VT tranzistor to'ynadi, kondensator tezda (t_p vaqt ichida) ochiq holatdagi VT tranzistorning past qarshiligi (bir necha om) orqali zaryadsizlanadi. Shundan keyin kondensatorning zaryadlanishi takrorlanadi va u_{vbx} chiqish kuchlanishi arrasimon shaklga ega bo'ladi(5, b-rasm).




Рис. 5

Kuchlanish zo'rashining t_n davomiyligi, o'z navbatida sxemadagi kirish u_{vx} kuchlanish va R rezistor qarshiliklariga bog'liq, S kondensator sig'imi va zaryadlovchi tok qiymati bilan aniqlanadi. OK ning boshqa kirishiga berilgan U_0 ni o'zgartib, "arrani" vertikal bo'yicha siljitim mumkin. u_{vbx} chiqish kuchlanishining arrasimon shakli saqlanib qoladi, agarda uning qiymati OK U_{vbx}^{\pm} chiqish kuchlanishining chegaraviy qiymatlari ichida joylashsa.

Sxemadagi R qarshiliklar bir xil bo'lganda, chiqish qarshiligi

$$u_{vbx} = \frac{2}{RC} \int u_{vx} dt - U_0 \text{ ga teng bo'ladi.}$$

O'quv topshirig'i va uni bajarishga uslubiy ko'rsatmalar

1- Topshiriq.

- Ishga tayyorlangan elementlardan multivibrator (MB) sxemasini yig'ing (2-rasmga qarang). Sxemaga $E_{\text{PIT}}=12V$ ta'minlovchi kuchlanishni


bering. Ostsillograf yordamida MV chiqishidagi signalni, kuchlanishlar epyuralari masshtabi (ko'lami)da va tranzistorlardan birining asosida o'lchang. MV ning xususiy tebranishlar davrini aniqlang.

2. MVning ishlashini tadqiq eting. Buning uchun, S2 va S4 kondensatorlar qiymatini o'zgarta borib, MV tebranishlar davrining o'zgarishini aniqlang. O'lchash natijalarini jadvalga kirit. Shunga o'xshash ravishda, baza qarshiliklarining diskret tartibda o'zgarib borishining MV tebranish davriga ta'sirini aniqlang. Natijalarni jadvalga kirit.

3. Sinxronizatsiya rejimida MVning ishlashini tadqiq eting. Buning uchun maketdagi “2” qisgichga AIG dan kuchlanish bering. Generator chiqishidagi kuchlanish o’zgarishi bilan MV tebranishlarining chastotasi qanday o’zgarishini aniqlang. MV chiqishida kuchlanishlar epyuralari masshtabi (ko’lami)da va tranzistorlardan birining asosida o’lchang.

3. MV sxemasini Multisim sxematexnik modellashtirish muhitida tadqiq etish.


6-rasmdagi sxemadagi *S1* va *S2* kondensatorlar maxsus ravishda har xil nominallarda tanlanganki, Electronics Workbench muhitida tebranishlar uyg'otish uchun.



6-rasm

MV ning klassik (mumtoz) sxemasi ikkita kalitdan: VT1, VT2 tranzistorlardan va vaqtini beruvchi (xronizatsiyalovchi) R1C1-va R2C2-filtrdan iborat bo'ladi. Bir turg'un holatdan ikkinchi holatga o'tish sakrash orqali amalga oshiriladi.

Agar MV ning boshlang'ich holati etib, vizir chizig'ining (7-rasm)dagि tegishli holatiga o'rnatilsa, unda aytish mumkinki VT2 tranzistor ochiq bo'ladi va uning kollektordagi kuchlanish (A ostsillogramma) VA1-70 mV, a bazasidagi esa VB 1-0,7 V(v ostsillogramma) ga teng bo'ladi.



7-rasm

Kuchlanishning keying arzimas pasayishida VT2 tranzistor yopiladi, undan keyin uning kollektorida chiqish impulsining oldingi fronti (yuzasi) shakllana boshlaydi. A ostsillogrammadan ko'rinish turibdiki, bu front eksponentsiyal shaklga ega bo'lib, chunki bunda S2 kondensatorning zaryadlanishi VT1 tranzistorning bazasidagi R_{2s}-S2- zanjir orqali orqali amalga oshiriladi va bu VT1 tranzistorning ochilishiga olib keladi. Shunday qilib, VT2 tranzistor bazasiga ulangan, taxminan U_{cc}-V_{B1}-V_{A1} kuchlanishgacha zaryadlangan C1kondensator ochiq VT1tranzistor va R₁rezistor orqali zaryadsizlanadi. S₁ kondensator V_{B1} \approx 0,7V kuchlanishgacha zaryadsizlanadi va undan keyin VT2 tranzistor yopiladi va o'xshash tartibda tanaffus hosil bo'lishi boshlanadi.

S₁ kondensatorning zaryadsizlanishida yopiq VT2 tranzistorning issiqlik toki ham qatnashishini e'tiborga olamiz. Agarda bu tokni e'tiborga olmasak, bu hol kremniyli tranzistorlar uchun o'rinali hisoblanadi (misol uchun 2N2222 tipdagi tranzistorlar uchun bu tok 10^{-10} A atrofida), u holda chiqish impulsining davomiyligi quyidagi formula bilan ifodalanadi: $T_I=0,7R_1S_1$, a tanaffus davomiyligi esa – $T_P=0,7R_2C_2$ formula bilan ifodalanadi, ya'ni tebranishlar davri $T_H+T_P=0,7(R_1C_1+R_2C_2)=0,7(30*10^3*2,21*10^{-6}+30*10^3*2,22*10^{-6}) = 92,8$ ms ga teng. Bu esa, modellashtirishda olingan natijaga $T_2 - T_1 = 94$ ms ancha yaqin.

MV ikki rejimda ishlashi mumkin – avtotebranishlar va poylovchi (sinxronizatsiya) rejimlari. Poylovchi rejimida MV tebranishlari chastotasi tashqi sinxronizatsiyalashtiruvchi (impulslari yoki sinusoidal) kuchlanishnikiga teng yoki karrali ravishda ushlab turiladi. Sinxronizatsiya impulslarining qutblanishi musbat bo'lishi lozim, ochuvchi tranzistorlar *p-r-p-tip* bo'lganda. MV turg'un ishlashi uchun sinxron impulsarning takrorlanish davri MV ning xususiy tebranish davridan biroz kichik bo'lishi kerak.

2- Topshiriq.

1. Multisim muhitida MV sxemasini yig'ing. Modellashtirishning zarur parametrlarini o'rnatiting va tranzistorlar baza va kollektorlaridagi MV tebranishlarining ostsillogrammalarini oling. MV tebranishlarining davri va impulsarning tirkish (skvajnost)larini aniqlang.

1. Impuls davomiyligi T_I ni va tanaffus davomiyligi T_P ni, yuqorida keltirilgan formulalar bo'yicha hisoblang i olingan hisoblash natijalarini 3.1. punktda olingan natijalar bilan solishtiring.

4. MV tebranishlari davrini S_1 va S_2 kondensatorlar nominallariga bog'liqligini o'rganing. Buning uchun ularning qiymatlarini o'zgartib MV tebranish davrlarini toping va natijalarni jadvalga kriting.

5. 3.3. banddagiga o'xshatib MV tebranish davrini R_1 va R_2 rezistorlar nominaliga bog'liqligini toping va natijalarni jadvalga kriting.

6. Sxema stendidiga har xil nominalli S_1 va C_2 kondensatorlarni qo'ying. Signal tirkishlarini o'zgarishini aniqlang. Natijalarni jadvalga kriting.

7. MV ishslashining sinxronizatsiya rejimida tekshiring. 1-rasmdagi sxemada VT1 tranzistor bazasiga impulslar generatoridan signal uzating (Electronics Workbench ning 5.12 versiyasida «Function generator» ishlatisch mumkin). MV tebranish chastotasining sinxronizatsiyalavchi generator chiqishidagi impuls chastotalari o'zgorganida qanday o'zgarishini aniqlang. O'lchash natijalarni jadvalga kriting.

2-Topshiriq. Labworks laboratoriya majmuasini va MS10 muhitni ishga tushiring(Labworks majmuasidagi Eksperiment yo'rig'inining tugmasini sichqoncha bilan bosish orqali). MS12 muhitning **Circuit Design Suite 12.0** papkasida joylashgan **xxx.ms12** faylni oching, yoki




Рис. 8

MS10 muhitining ishchi maydonida OK li avtotebranuvchi va poylovchi multivibratorlar sxemasini yig'ing (8-rasm), ularni va komponentlarining

parametrlarini dialog darchalariga joylashtiring. 8-rasmdagi sxemani hisobot varaqlariga o'tkazing.

Sxema (8-rasm) SN741 tipdagi operatsion kuchaytirgich (OK) asosida yig'ilgan bo'lib, ikkita teskari aloqa halqasiga ega va MV ishlashining ikkala rejimini ham ta'minlaydi. MV *avtotebranuvchi rejimida* ishlaganida (**A** va **V** kalitlar ochiq), bunda chiqishda uzlusiz ravishda to'g'riburchakka yaqin shakldagi impulslar hosil bo'ladi va *poylovchi rejimida* esa (**A** va **V** kalitlar yopiq), chiqish impulsi faqat OK ning invertorlanmagan kirishiga t_{zap} ishga soluvchi (zapuskayuши) impuls berilgandan keyingina hosil bo'ladi va bu impuls **E1** generator (bu generator yordamida to'g'riburchakli impulsning qutblanishini, kengligini va takrorlanish davrini yuklash mumkin), **S1** kondensator va **VD** diod yordamida hosil qilinadi.

VD1 i **VD2** diodlar **R1** va **R2** rezistorlar bilan teskari aloqa zanjiriga ketma-ket ulangan va $U_{\text{вых}}^+$ va $U_{\text{вых}}^-$ chiqish kuchlanishlarida, **S** kondensatorning zaryadlanish va zaryadsizlanish toklarining navbatmanavbat o'tishini ta'minlaydi.

2-Topshiriq. *Simmetrik* multivibratorni sinovini **o'tkazing** (**A** va **V** kalitlarni ochib, rezistorlarga $R_1 = R_2 = 40$ kOm qarshiliklarni va **S** kondenstorga $S = 50$ nF sig'imni o'rnating). **XSC2** ostsillograf darchasida vizir chiziqlari yordamida, chiqishdagi $U_{\text{вых}}^+$, $U_{\text{вых}}^-$ -chiqish kuchlanishlari, t_1 , t_2 , da T tebranishlar davri va f tebranishlar chastotasini **o'lchang** va hisoblangan natijalar bilan **taqqoslang**. **VD1** va **VD2** diodlarning ochiq holatdagi qarshiliginini va $R4$ yuklama qarshiliginining ta'sirini inobatga olmang.

XSC2 ostsillograf darchasini simmetrik multivibratorning kuchlanish ostsillogrammalari bilan birgalikdagi **nusxasini oling** va **hisobot varag'iga o'tkazing**.

Multivibrator parametrlarini tanlashda quyidagi qoidalardan kelib




Рис. 9

chiquiladi: u_s kuchlanish invertorlovchi kirishdagi S kondensator zaryadlanishi va zaryadsizlanishi davomida, invertoramaydigan $|u_{vx,n}| = U_{vbix}^- \beta$ yoki $|u_{vx,n}| = U_{vbix}^+ \beta$ ($\beta = R_3/(R_3 + R_{oc})$ – POS koeffitsienti) POS kuchlanishdan baland bo’lishi kerak va u_{vbix} chiqish kuchlanishining yarim davrida o’zgarmasdan qoladi(9-rasm). $u_s = |u_{vx,n}|$ tengligida u_{vbix} chiqish kuchlanishi sakrab belgisini o’zgartadi.

Chiqish impulslarining t_1 va t_2 davomiyligini aniqlaganda, quyidagilarni e’tiborga olish kerak: t_1 vaqt intervalida u_s kuchlanish $U_{vbix}^- \beta$ dan U_{vbix}^+ gacha o’zgaradi va $U_{vbix}^+ \beta$ darajaga erishadi va t_2 vaqt oralig’ida kuchlanish $U_{vbix}^+ \beta$ dan U_{vbix}^- ga intiladi va U_{vbix}^- darajaga erishadi, ya’ni keltirilgan vaqt oraliqlarida kondensatordagi kuchlanish quyidagicha o’zgaradi:

$$u_C = (\beta U_{vbix}^- + U_{vbix}^+) (1 - e^{-t/\tau}) - \beta U_{vbix}^- ;$$

$$u_C = (\beta U_{vbix}^+ + U_{vbix}^-) e^{-t/\tau} - \beta U_{vbix}^+ ,$$

bu erda $\tau = R_1 C = R_2 C$ – teskari aloqa zanjiridagi vaqt doimiysi.

Agar $U_{vbix}^+ = U_{vbix}^-$, bo’lsa, unda impulslar davomiyligi (**VD1** va **VD2** diodlar qarshiliginini inobatga olmagan holda):

$$t_1 = t_2 = \tau \ln[(1 + \beta)/(1 - \beta)] = \tau \ln(1 + 2R_3 / R_{oc}) ,$$

$$T = t_1 + t_2 \text{ davri} \text{ va } f = 1/T \text{ tebranishlar chastotasi.}$$

Yaratilayotgan impulslar davomiyligi, va ularning frontlari oshadi (kamayadi) **R1**, **R2** rezistorlar qarshiligi va **C** kondensator sig' im oshishi (kamayishi) bilan mos ravishda.

4. Hisobot mazmuni

1. Ishning nomi va maqsadi
2. Tajribada ishlataladigan asboblar ro'yxati va ularning xarakteristikalari.

Hisobot har bir talaba tomonidan mutaqil tayyorlandai. Ish himoyasi har bir keyingi dars boshida o'tkaziladi (zarurat bo'lganda EHM qurilmalaridan foydalanilgan holda). Ishni tayyorlamagan va himoya etolmagan talaba keyingi mashg'ulotga qo'yilmaydi.

1. Tekshirilayotgan MV ning printsiplial elektr sxemasi.
2. Jadvalga kiritilgan o'lchash natijalari va zarur grafiklar.
3. Multisim muhitida MV ishlashini modellashtirish natijalari: ostsillogammalar, jadvallar va grafiklar.
4. Ish bo'yicha xulosalar, kamchiliklar va multivibratorlarning qo'llash sohasi va afzalliliklari.

5. Nazorat savollari.

1. Simmetrik MV ning sxemasidagi elementlarning vazifalarini izohlang.
2. MV sxemasining ishlashini izohlang.
3. MV sxemasidagi kollektor va baza zanjiridagi tok yo'naliшlarini ko'rsating.
4. Vaqtini o'rnatuvchi kondensatorlarning zaryadlanish va zaryadsizlanish toki yo'llari va yo'naliшlarini ko'rsating.
5. MV chiqarayotgan impulsarning davomiyligi sxemaning qaysi parametrlari orqali aniqlanadi.
6. MV dagi impulsarning tirqishi (skvajnost) nimaga teng va u qanday aniqlanadi?
7. Simmetrik MV deb nimaga aytildi ?
8. MV ning sinxronizatsiya rejimini izohlang.
9. MV tashqi sinxronizatsiyasini amalga oshirish shartlari va u qanday izohlanadi?
10. Impulslar davomiyligini boshqarish usullari va xususiyatlari.
11. Ish bo'yicha xulosalar.

3-amaliy mashg'ulot: “Proteus ISIS Professional” modellashtirish dasturi.

Ishning maqsadi: “Proteus ISIS Professional” modellashtirish dasturini o’rgani. LCD 1602 ga(displayga) ma’lumotlarni chiqarish va olingan ma’lumotlarga asoslanib qurilmani ishchi maketini yasash.

Masalaning qo’yilishi

Mashg’ulot vazifalari:

- Vizual loyihalash bo'yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- Proteus dasturi xaqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Proteus dasturi komponentalari bilan tanishish;
- Proteus dasturida sxemasini yig'ish va ishlatish.
- Maket plata bilan tanishish va u bilan ishlash

Uskunalar: “Proteus ISIS Professional” sxemotexnik modellashtirish muhiti. Maket plata, PIC16F876A kontrolleri, LCD 1602 (display)

Ko’plab radiohavaskorlar zarur va kerakli qurilmani yig’ishga kirishib, sxemadagi xatolik tufayli, yoki tajribasizligidan va boshqa fors-major holatlarga ko’ra, qiyinchilik bilan sotib olingan qimmatbaho detallarini kuydirib qo'yishadi. Va bunday birinchi muvaffaqiyatsizliklardan keyin radioelektronikani butunlay unutib yuborishadi.

Bizning yoppasiga kompyuterlashuv davrimizda buning echimi topildi. Ko’plab simulyator dasturlar paydo bo’ldiki, ular vositasida radiodetallar va aboblarni virtual modellar bilan almashtirish mumkin. Simulyatorlar real qurilmani yig’masdan turib, sxemani ishlashini sozlash, loyihalashda yo’l qo'yilgan xatoliklarni topish, kerakli xaracteristikalarini o'lchash va shu kabilarni amalga oshirish imkonini tug'diradi.

Shunday dasturlardan biri PROTEUS VSM hisoblanadi. Ammo, radioelementlarni simulyatsiya qilish uning yagona qobiliyati emas. Proteus VSM dasturi, Berkli universitetining SPICE3F5 yadrosi (o’zagi) asosida Labcenter Electronics firmasi tomonidan yaratilgan bo’lib, “ikki tarafi ochiq” loyihalashirish muhiti hisoblanadi. Bu degani, qurilmani yaratish, uning grafik tasviridan (printsipial sxemasidan) tortib to qurilmaning pechatli platasini tayyorlashgacha, ishlab chiqarishning har bir etapida nazorat qilish imkonini beradi.

Ammo, tashqaridan murakkabligiga qaramasdan, bu dasturdan radioelektronika dunyosida havaskorlar va qarshilikni tranzistorni ajrataolmaydigan tajribasiz “mutaxasislar” foydalanishi mumkin.

PROTEUS VSM dasturi “doirasiga” oddiy analogli qurilmalardan tortib,

hozirda mashhur murakkab mikrokontrollerlarga kiradi. U g'oyat katta elementlar modellar kutubxonasiga ega va uni foydalanuvchining o'zi to'ldirib borishi mumkin, albatta buning uchun u elementni ishlashini to'la bilishi va daturlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Sxemalarni jonlantirish imkoniyatlari esa, dasturga o'rta va oliv matabda ko'rsatmali quroq bo'lish imkonini beradi. Etarlicha keng qurollar to'plami, voltmetr, ampermetr, ostsillograf, har xil generatorlar, mikrokontrollerlar dasturlarini sozlash qobiliyati, PROTEUS VSM dasturini, elektron qurilmalar yaratuvchisining tengi yo'q yordamchisiga aylantiradi.

Dasturni yaratuvchilarining sayti : <http://www.labcenter.co.uk> .


Dastur tizimiyl talablarni tanlamaydi. Windows 98/Me/2k/XP dan tortib barcha tizimlarda ishlaydi. Hattoki, Pentium I 150 MGts da ham ishlashi mumkin.

Ammo, qulay ishlash uchun protsessor chastotai 500 MGts dan kam bo'lmasligi, operativ xotira 64 MV, tovush platasi DirectX ga mos va monitoring ajratishi 1024 x 768 nuqtadan kam bo'lmasligi kerak.

Proteus VSM dasturi yashirin tarzda C:\Program Files\Labcenter Electronics\Proteus 6 Demonstration papkasiga o'rnatiladi.


Proteus VSM dasturi ikkita mustaqil ISIS va ARES ARES dasturlaridan iboratdir. Asosiy dastur ISIS dan iborat bo'lib, ARES dasturi orqali loyiha plataga ko'paytirish uchun uzatiladi.

Dastur ishga tushirilganda quyidagi asosiy darcha paydo bo'ladi:



01-rasm

Eng katta fazo EDIT WINDOW muxarrirlash darchasiga ajratilgan. Aynan ushbu darchada barcha asosiy jarayonlar: sxemani yaratish, muharrirlash va qurilma sxemasini sozlash sodir etiladi.



02-rasm


Chapdan tepada Overview Window kisik qarab chiqish darchasi joylashgan bo'lib uning yordamida muharrirlash darchasiga o'tiladi (sichqonchani chap tugmchasini bosib sxemani muxarriplash darchasiga kirish mumkin, albatt sxema butunligicha darchaga joylashmasa).

Muharrirlash darchasini quyidagi sxema orqali siljitim mumkin, yana boshqachasiga, SHIFT tugmasini bosib ushlab turib, sichqon kursorini (uning tugmalarini bosmasdan) muharrirlash darchasi bo'ylab suriladi.

F6 va F7 yoki sichqoncha g'ildiragi yordamida sxemani yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish mumkin. F5 sxemani markazlashtiradi, F8 sxemani muharrirlash darchaiga moslashtiradi.


Object Selector qarab chiqish darchasi ostida ayni paytda tanlangan elementlar ro'yxati, simvollar va boshqa elementlar joylashadi. Ushbu ob'ektlar ro'yxati dastlabki qarab chiqish darchasida ak ettiriladi.

Proteus VSM dasturining barcha funktsiya va qurollari asosiy dastur darchasining eng tepasida joylashgan menyuda joylashgan. Foydalanuvchi menu ostida joylashgan piktogrammalarni va "issiq" tugmachalarni o'zgartirishi mumkin.



03-rasm

Asosiy darchaning eng pastida: chapdan o'ngga qarab ob'ektni o'z o'qi atrofida aylantirish va burish tugmalari, interaktiv simulyatsiya boshqaruvi paneli (magnitafonnikiga o'xshash funktsiyalar PUSK -POShAGOVIY REJIM PAUZA-STOP) joylashgan.




03 a -rasm

Vaziyat (holat) qatori (unda: xatolar, ko'rsatmalar, ayni paytdagi imulyatsiya jarayoni holati va boshqalar) va dyuymlarda keltirilgan kursorning koordinatalari joylashgan.

Dasturning asosiy funktsiyalarini o'zlashtirish uchun bizga "qurban" zarur bo'ladi. Mavjud loyihalardan birini ochamiz. FILE menyusidagi LOAD DESIGN optsiyani tanlaymiz. SAMPLE/ANIMATION CIRCUIT/AC01.DSN .

faylni yuklaymiz.



04-rasm.

Paneldagi PUSK tugmasini bosib loyihani ishga tushiramiz.




05-rasm

Bu sxema zanjirdagi o'zgaruvchan tokni harakatini namoyish etadi. Yaqqollik uchun generator chastotasi 0,5 Gts gacha pasaytirilgan.

Simlarning rangi va ravshanligi kuchlanish darajasini va qutblanishini aniqlaydi, strelkalar esa tokning yo'nalishini ifodalarydi. Generator tasviridagi qizil nuqta hozirgi paytdagi sinusoidaning holatini ko'rsatadi.


Ob'ektlarni boshqarish uchun avvalombor ularni tanlab olish kerak, buni faqat to'xtatilgan loyihada amalga oshirish mumkin. Bitta ob'ektni tanlash uchun unga sichqonning o'ng tugmasi bilan bosish kerak. Guruhnini tanlash uchun esa, CTRL ni bosgan holda barcha o'ng tugma bilan barcha ob'ektlarni boish kerak yoki o'ng tugmani ushlab turib zarur ob'ektlarni tanlash sohaiga o'tkazish kerak bo'ladi. Ob'ektni ehtiyyot bo'lib tanlash kerak, chunki o'ng tugmaning takroriy bosilishi ob'ektni o'chirib yuboradi (tanlangan ob'ektlarni DELETE yordamida o'chirish mumkin).

Ammo, bu unchalik xavfli emas, vaziyatni oxirgi va undan oldingi harakatlarni tartib bo'yicha bekor qilib (UNDO, REDO). saqlab qolish mumkin.



06-rasm

Bekor qilish qilish tugmasi vaqt bo'yicha oldinga va orqaga harakat qilishi mumkin. Tanlangan ob'ektlarni sxema bo'yicha sichqonchaning chap tugmasi bosib kerakli joyga siljitim qo'yib yuborish mumkin. Ushbu tugmalar yordamida tanlangan guruhlarni siljitim mumkin. Navbat bo'yicha: nushalash, siljitim, burash va o'chirishni amalga oshirish mumkin.



07 –rasm

Quyidagi loyihada dasturda ishlashni o'rganamiz Loyiha kiritilgan har qanday o'zgarishlar saqlanib qo'ymaguncha loyihaga ta'sir etmaydi. Ushbu fayldagi Diode07.DSN loyihani oching, oldingisi yopiladi va sizdan «ne jelaete li soxranit izmeneniya» deb so'raydi. “Yo'q” deb javob bering va loyihani ishga tushiring.

LCD 1602 ga(displayga) ma'lumotlarni chiqarish.


```
// LCD (ekran) ga ma'lumot chiqarish
// PIC 16F876A. tashki rezonator. 4MHz
// LCD oyoqlari MK ning qaysi oyoqlariga ulanishi xaqida kelishuvlar
sbit LCD_RS at RC2_bit; //LCD_RS o'zgarmasi Mk ning PORTCning 2-
oyog'iga ulangan.

sbit LCD_EN at RC3_bit; // -||-
sbit LCD_D4 at RC4_bit; // -||-
sbit LCD_D5 at RC5_bit; // -||-
sbit LCD_D6 at RC6_bit; // -||-
sbit LCD_D7 at RC7_bit; // -||-
sbit LCD_RS_Direction at TRISC2_bit; //oyoqlarning kirish yoki chiqish
uchun ekanligi tanlandi
sbit LCD_EN_Direction at TRISC3_bit; // -||-
sbit LCD_D4_Direction at TRISC4_bit; // -||-
```

```


sbit LCD_D5_Direction at TRISC5_bit; // -||-
sbit LCD_D6_Direction at TRISC6_bit; // -||-
sbit LCD_D7_Direction at TRISC7_bit; // -||-
//MK imkoniyatiga qarab boshqa oyoqlarga ulash mumkin.
char txt[] = "TDTU"; // "txt" massivi e'lon qilindi
char txt1[]="0000"; // "txt1" massivi e'lon qilindi. Xozircha u 0000 ga teng
unsigned int a=1995;// "a" o'zgaruvchisi e'lon qilindi va u 1995 ga teng
void main(){ // asosiy dastur ishga tushurildi
Lcd_Init(); //LCD (ekran) bilan ishlash e'lon qilindi
Lcd_Cmd(_LCD_CLEAR); // ekran tozalandi
Lcd_Cmd(_LCD_CURSOR_OFF); // kursov o'chirildi
While(1){ // dastur toxtovsiz ishlashi uchun tsikl ko'yildi
Lcd_Out(1,1,txt);//ekranning 1-qator 1-katagidan "txt"massivi yozilsin
Lcd_Out(1,6,"E va A");// ekranning 1-qator 6-katagidan "E va A"yozuvi yozilsin
/*
    "a" o'zgaruvchisini matematik yo'l bilan
    sonlarga ajratib ekranga chiqarish (a=1995). Sonlarga "48" sonini
    qo'shib ASCII jadvalidagi songa tenglashtiriladi. Chunki LCD faqat ASCII
    jadval bo'yicha ma'lumotlarni tushunadi.*/
txt1[0] = (a/1000)%10 + 48;//txt1 massivining 0-elementi 1 soniga teng
txt1[1] = (a/100)%10 + 48; // txt1 massivining 1-elementi 9 soniga teng
txt1[2] = (a/10)%10 + 48; // txt1 massivining 2-elementi 9 soniga teng
txt1[3] = a%10 + 48; // txt1 massivining 3-elementi 5 soniga teng
Lcd_Out(2,1,txt1);// ekranning 2-qator 1-katagidan "txt1"massivi yozilsin
} // tsikl blogi
}// asosiy dastur tugatildi

```




Maket plata bilan tanishish.

Maket plata bizga qisqa vaqt ichida sxemalarni yig'ib ishlashini tekshirish va kamchiliklarini bartaraf etishga imkon beradi. Rasmda maket platanning tashqi va ichki ularish sxemasi keltirilgan. O'rta qatorlar elementlar uchun, chekka qatorlar tok manbai.



Tokni taqsimlash blogi. Ushbu blog orqali maket plataga 5 yoki 3.3 volt kuchlanish berish mumkin.



Elementlar
maket plataga tiqiladi va maxsus o'tkazgichlar orqali bir-birlariga oson bog'lanadi.

4-amaliy mashg'ulot: "MIkroC PRO for PIC" modellashtirish dasturi.

Ishning maqsadi: "MIkroC PRO for PIC" modellashtirish dasturini o'rgani. Yorug'lik diodini tugmachalar orqali boshqarish va olingan ma'lumotlarga asoslanib qurilmani ishchi maketini yasash.

Masalaning qo'yilishi

Mashg'ulot vazifalari:

- S dasturlash tili xaqida nazariy bilimlarni mustahkamlash;
- "MIkroC PRO for PIC" dasturini o'rganish va ushbu dasturda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish.
- "MIkroC PRO for PIC" dasturida ishlatiladigan buyruq operatorlari bilan tanishish.
- Dastur tuzish va uni Proteus dasturi yordamida tekshirish.

Uskunalar: "MIkroC PRO for PIC" sxemotexnik modellashtirish muhiti.

Maket plata, PIC16F876A kontrolleri, yorug'lik diodi, tugmachalar.

"MikroC PRO for PIC"da C++ dasturlash tilidan foydalanib mikrokontrollerga turli dasturlar yaratiladi. "MikroC PRO for PIC"da eng ko'p ishlatiladigan va muxim operatorlar, komandalar haqida kisqacha ma'lumot.

(“MikroC PRO for PIC” endi “MikroC” deb aytildi)


“MIkroC” da C++ tilidan foydalanib dasturlar tuziladi.

“MIkroC” ning qulayliklari:

1. Xotiradan juda kam joy egallaydi.
2. Har bir dactur uchun kutubxonalar biriktirish shart emac.
3. Eng kerakli kutubxonalar mavjudligi (Micollar tariqacida schemaci bilan ko'rcatib berilganligi. F1 tugmasi orqali ko'rish mumkin).
4. Qo'shimcha terminallar va dacturlar mavjudligi.


“MikroC” da yangi loyixa yaratish.

5. MikroC dacturi ishga tushuriladi
Pusk->mikroelektronika->mikroC PRO for PIC-> mikroC PRO for PIC.exe




6. Yangi loyixa yaratish uchun “New Project” tugmaci bosingadi.

Yoki: File->New->New Project.




7. Loyixani cozlash oynaci



8.


- 3.1->Loyixaning nomi
- 3.2->Loyixaning caqlanadigan joyi (Browse tugmacini bocib xoxlagan papkangizga caqlashingiz mumkin)
- 3.3->Mikrokontrollerni tanlash
- 3.4->Mikrokontrollerning ishlash chactotacini tanlash
- 3.5->Mikrokontrollerning konfiguratsiyalarini cozlash oynacini ochish. (Doim ochilishi maclaxat beriladi)
- 3.6->Barcha ma'lumotlar kiritilgandan co'ng “Next->” tugmaci bociladi.**

Bocilgadnan co'ng ushbu oyna ochiladi. Ushbu oynada Add tugmaci orqali loyixaga qo'shimcha "c va h" fayllarini qo'shish mumkin.



4-> Ushbu oyna biz uchun shart emac, shunchaki yana “Next->” tugmaci bociladi.


Kutubxonalarini tanlash oynaci ochildi.



5-> Include All – ni tanlaymiz (Barcha kutubxonalarini loyixaga bog'laymiz)

6-> Finish tugmacini bocamiz.

Mikrokontrollerni konfiguratsiya qilish oynaci ochiladi (3.5 punktda ushbu oynani ochilishini co'raganimiz uchun)





PIC16F876 da ichki rezonator yo'q shuning uchun tashqi reznator tanlanadi

7->Tashqi rezonatorni tanlash uchun quyidagini tanlaymiz (XT oscillator)

Boshqa parametrarga teginmacdan

Ok tugmacini bocamiz.

Loyixa dacturini yozish oynaci ochildi. Mana shu oyna ichiga kod yoziladi.



8.Saqlash tugmasini bosamiz. Kod fayliga nom berib saqlab qoymamiz

5-amaliy mashg'ulot: "Flowcode" dasturi bilan tanishish. Asosiy nanoob'ektlarni o'rGANISH.

Ishdan maqsad: Flowcode" dasturi bilan tanishish. Asosiy nanoob'ektlarni o'rGANISH.


Misol 1. Sonni 7 segmentli indikatorga chiqarish

Dasturning boshlanishi


"Raqam" o'zgaruvchisiga qiymatini o'zlashtirish 6

7 segmentli indikatorning makrosini chaqirish. ShowDigit komandasasi. "Raqam" o'zgaruvchisi-ni indikatorga jo'natish.

Dasturni to'xtatish



Вывод числа на 7-ми сегментный индикатор



Misol 2. 7 segmentli indikatorda 0 dan 9 gacha hisoblagich

Hisoblagich sekundlarni 0 dan 9 gacha sanaydi

Cheksiz tsiklning boshlanishi

"Raqam" o'zgaruvchisiga qiymatini o'zlashtirish 0


"Raqam" o'zgaruvchisi toki 9 dan kichik bo'lsa tsiklni bajarish

7 segmentli indikatorning makrosini chaqirish. ShowDigit komandasasi. "Raqam" o'zgaruvchisini indikatorga jo'natish.

1 sekundga ushlanish

"Raqam" o'zgaruvchisiga birni qo'shish ($Raqam = Raqam + 1$)

Счетчик от 0 до 9 на 7-ми сегментном индикаторе



"Raqam" o'zgaruvchisi 9 dan
kichik bo'lgan tsiklga qaytish

Cheksiz tsiklga qaytish

Misol 3. LCD displeyga matn qatorini chiqarish

"Ali Haydarov" qatorini yuqoriga chiqaramiz va "Hasanovich" ni esa
pastki qatorga.

Display initsializatsiyasi. Start.

Kursorni 0-segmentdagi 0-
qatorga o'tkazish

Makros 1 Makros

LCDDisplay makrosini ishga
tushirish → PrintASCII “Ali
Haydarov” xarfi



Makros 2 Makros

Kursorni pastki qatorga o'tkazish

Makros 3 Makros

LCDDisplay makrosini ishga
tushirish → PrintASCII
“Hasanovich” xarfi

Вывод строки текста на LCD дисплей



VI. GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Baza	<i>Baza</i> bu yarim o'tkazgichli tranzistrdagi p-n o'tishdagi kollektor va emitter orasidagi bog'lanishni ta'minlovchi elektron.	Links between the emitter and collector of the p-n junction in a semiconductor transistor
Baza elektrodi	Yarim o'tkazgichli tranzistorni baza sohasi bilan elektron o'tkazuvchanligini ta'minlovchi elektron.	Electrode providing conductivity basic field of semiconductor transistors
Vol-amper tavsif (VAT)	Tok kuchining elektron zanjirning bo'lagiga qo'yilgan kuchlanishga yoki elektron zanjir bo'lagidagi kuchlanishning undan oqayotgan tokka bog'lanishi.	The dependence of the current on the applied to an element of an electric circuit or dependence of voltage drop on the element electrical circuit from the current flowing through it.
Diod	Elektron tokini faqat bitta yo'nalishda o'tkazuvchi va elektron zanjirga ulash uchun ikkita tutashuvga ega bo'lgan vakuum, yarimo'tkazgich yoki gazrazryadli elektron asbob	(from the Greek word δις - two-and one-on-one end of the term electrode; letters. "two-electrode", but the root-one comes from al-Greek.. ὁδός «Way») - electrode element having different conductivity as a function of the electric current
Yorug'lik nurlovchi diod	İnjeşyon elektrolyumessensiya asosida elektron energiyani yorug'lik nurlanish energiyasiga aylantiruvchi yarimo'tkazgich asbob	A semiconductor device that converts electrical energy into the energy of optical radiation based on the phenomenon of electroluminous injection.
Yorug'likka sezgirlik	1) fotomaterialning yorug'lik nuri ta'sir qilganidan so'ng kimyoviy ishlov natijasida tasvir hosil qilish qobiliyat; 2) yuqorida keltirilgan qobiliyatni miqdor jihatidan ifodalovchi kattalik, u fotografik suratga olish vaqtida to'g'ri sharoitni topishda qo'llaniladi	1) the ability of the material to form the photographic image as a result of the action of light and subsequent development. 2) The value of quantifying the specified capacity and serves to find the correct exposure

		conditions in the photographic survey
Zaryad	Elektromagnit maydon manbai bo'lib, boshqa zaryadlar bilan o'zaro ta'sirlashadigan zaryad	A source of electromagnetic fields associated with the charge carrier. The charge interacts other charges
Infraqizil nurlanish	To'lqin uzunliklari $\lambda=2\text{mm} \div 0,74\text{mkm}$ oraliqda bo'lgan, ko'zga ko'rinxaymaydigan elektromagnit nurlanish qizil nurlanish ohiri bilan qisqa to'lqinli $\lambda=2\text{mm} \div 0,74\text{mkm}$ orasidagi radionurlanish orasida joylashadi	Electromagnetic radiation, occupying the spectral region between the red end of the short-wave radiation and radio waves $\lambda = 2 \div 0,74 \text{ mkm}$
Ichki fotoeffekt	Kondentsrlangan muhitda energetik holatlariga ko'ra elektronlarning qayta taqsimlanishi va u elektromagnit nurlanish yutilishida sodir bo'ladi	The redistribution of the electron energy states in a condensed medium is happening in the absorption of electromagnetic radiation
Mikroelektronika	Mikromitti integral ko'rinishdagi elektron qurilmalar muammolarini yaratish elektronika sohasi o'z ichiga olgan	The area of electronics, covering the problems of creating electronic devices in integrated micro-miniature design
Monokristall	O'zining butun hajmida yagona kristal panjaraga ega bo'lgan kristall	Crystal having a uniform throughout the volume of the crystal lattice
Nano	boshlang'ich birliklarining 10^{-9} qismiga teng ulush birligining nomi, uni hosil qilish uchun fizik kattalik birligi nomining oldiga qo'yildi va qo'shimcha n- lar bilan ifodalanadi $1\text{nm}=10^{-9}\text{m}$	prefix to the name of the unit of a physical quantity to form the name of the longitudinal ones equal to 10^{-9} of the original unit. Legend: n, n $1\text{nm} = 10^{-9}\text{m}$.
Optoelektronika	Axborotni bir vaqtning o'zida optik va elektr usullar bilan ishlash, saqlash va uzatish muammolarini qamrab oluvchi elektronika sohasi	The area of electronics, covering the problem of simultaneous use of optical and electrical methods of processing, transmission and storage
Tranzistor	Elektr quvvatini kuchaytira oladigan yarim o'tkazgichli kuchaytirgich asboblari	Semiconductor transistors, called amplifying devices that are capable of

	tranzistor deyiladi . Tranzistorlar juda ko`p kontstruktiv-texnologik turli tumanlilarga ega, ammo ishlash tamoiliga ko`ra ular ikki sinfga bo`linadi: bi qutbli va unipolyar	increasing the electric power. Transistors have a lot of constructive - technological species but in principle to divide them into two main classes: bipolar and unipolar.
Tunnel diod	Ishlash tamoili tunnel effektiga asoslangan yarim o`tkazgichli diod . Tunel diodda potentsial diodni to`sinq balandligidan nafaqat ortiq bo`lgan energiyaga ega bo`lgandan tashqari, ancha kamroq energiyalarda to`sinq etarli darajada yupqa bo`lsa ham undan to`liq sizib o`tishi mumkin	Semiconductor diode principle of which is justified by the tunnel effect. An electron in a tunnel diode can potential barrier not only with energy higher than the barrier height, but at much lower energies by "leakage" through the barrier if it is thin enough
Fotodiod	Yorug'lik nurlanishining bir yoqlama fotoo'tkazuvchanlikka ega bo`lgan yarimo'tkazgich fotoelektrik qabul qilgich.	Selective semiconductor photoelectric detector optical radiation, having a one-sided photoconductivity

VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Maxsus adabiyotlar:

1. Sovremennye obrazovatelnye texnologii v uchebnom protsesse vuza[Tekst]: metodicheskoe posobie / avt.-sost. N. E. Kasatkina, T. K. GOU «KRIRPO», 2011. – 237 s.
2. Karlašuk V.I. Elektronnaya laboratoriya na IBMPC. Programma ElectronicsWorkbench i ee primenenie. – M.: Izd. «Solon–R», 2011. – 726 s.
3. Benevolenskiy S. B., Marchenko A. L., Osvald S. B. Kompyuternyy laboratornyy praktikum po elektrotexnike (v sredax Electronics Workbench i Multisim 8). —M.: MATI, 2006, 170 s.
4. Xerniter Mark E. Multisim ® 7: Sovremennaya sistema kompyuternogo modelirovaniya i analiza sxem elektronnykh ustroystv. (Per. s angl.) / Per. s angl . Osipov A.I . – M .: Izdatelskiy dom DMK press, 2006. – 488 s.: il.
5. Egorov E.N., Rempen I.S. Primenenie programmnogo prikladnogo paketa Multisim dlya modelirovaniya radiofizicheskix sxem, 2012, 24s. - URL: <http://www.sgu.ru/files/nodes/30844/MULTISIM.pdf>
6. Kardashev G.A. Virtualnaya elektronika. Kompyuternoe modelirovanie analogovyx ustroystv G.AKardashev. –M.: Goryachaya liniya - Telekom, 2002.–260s.
7. Ganiev S.K. «Elektron xisoblash mashinalari va sistemalari»Toshkent 2015 yil.
8. Ma'ruza materiallari “Avtomatikaning mikroprotsessorli vositalari” dotsenti O'ljaev Erkin.Toshkent 2018 yil
9. Neshumova.K.A. Elektronnye vychislitelnye mashiny i sistemy. 2005 god.
- 10.Znakomtes Kompyuter. Izdatelstvo «MIR». 2003.
11. www.referat.ru

Internet resurlari:

1. <http://russia.ni.com/multisim>
2. www.ni.com/russiaMultisimTM. User Guide, 2011.
3. <http://russia.ni.com/multisim>
4. <http://www.twirpx.com/library/comp/>
5. www.sgu.ru/files/nodes/30844/
6. <http://matlab.exponenta.ru/>
7. <http://www.ziyonet.uz>
8. www.arxiv.referat.uz
9. <http://www.eknigi.org>
10. <http://www.nashaucheba.ru>
11. <http://www.ni.ru>
12. www.allmathcad.com
13. www.skachat-vse-besplatno.ru/programma/labview
14. www.softforfree.com/programs/matlab